

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
TARIX FAKULTETI

Tarix yo‘nalishi

08.437-guruh bitiruvchisi Mohira Po‘latova Qurbonboyevnaning

**“O‘RTA OSIYODA MILLIY –DAVLAT  
CHEGARALANISHI (MASALANING  
TARIXSHUNOSLIGIGA DOIR)”**

mavzusidagi

**BITIRUV**

**MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar:

t.f.n. R.Arslonzoda

Farg‘ona – 2012

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	4-6
<b>I Bob. Sovet davri adabiyotlarida O`rta Osiyoda milliy-davlat chegaralanishi masalasining yoritilishi</b> .....	7-46
1.1. 20-30-yillarda tarix fanida milliy davlat chegaralanishi masalalarining yoritilishi.....	7-15
1.2. 50-80-yillarda tarixiy adabiyotlarda milliy davlat chegaralanishi masalasining talqini.....	16-46
<b>II Bob. Mustaqillik davri tarixshunosligida O`rta Osiyodagi milliy davlat chegaralanishining talqini</b> .....	47-64
2.1. O`zbekiston tarixchilari asarlarida milliy davlat chegaralanishi masalalari.....	47-61
2.2. Milliy davlat chegaralanishi horij tarixchilari nigohida.....	61-64
<b>Xulosa</b> .....	65-67
<b>Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar</b> .....	68-69

Mavzu: O`rta Osiyoda milliy –davlat chegaralanishi(Masalaning tarixshunosligiga doir)

Reja:

Kirish.

I Bob. Sovet davri adabiyotlarida O`rta Osiyoda milliy-davlat chegaralanishi masalasining yoritilishi.

1.1. 20-30-yillarda tarix fanida milliy davlat chegaralanishi masalalarining yoritilishi.

1.2. 50-80-yillarda tarixiy adabiyotlarda milliy davlat chegaralanishi masalasining talqini.

II Bob. Mustaqillik davri tarixshunosligida O`rta Osiyodagi milliy davlat chegaralanishining talqini.

2. 1. O`zbekiston tarixchilari asarlarida milliy davlat chegaralanishi masalalari.

2. 2. Milliy davlat chegaralanishi horij tarixchilari nigohida.

Xulosa.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar.

## **Kirish.**

**Mavzuning dolzarbligi.** Mustaqillik ulug` ne`matdir. Shuning uchun ham xalqimiz o`z mustaqilligini qo`lga kiritishga intildi va, nihoyat, uzoq kutilgan istiqlolimiz ham qo`lga kiritildi. Mustaqillikka erishganimizdan so`ng tariximizni erkin, xolis, haqqoniy o`rganish uchun sharoit yuzaga keldi va shu asosda o`zlikni anglash hamda milliy ma`naviyatimizni tiklashga kuchli ehtiyoj paydo bo`lib, tarix fani oldiga yangi talab va vazifalar qo`yildi. Ma`naviy hayotimizni yangilash, uning asosi bo`lgan milliy g`oyani shakllantirishda tarix fanining o`rni beqiyosdir. Prezidentimiz o`zlarining bir qator asarlarida kishilar dunyoqarashi va jamiyat mafkurasining shakllanishida tarix fanining ahamiyati katta ekanligini ta`kidlab o`tganlar. Jumladan, Prezidentimiz I. A. Karimov milliy mafkuraning shakllanish jarayonida tarix fanining o`rniga g`oyat yuksak baho berdi: “Milliy mafkurani shakllantirishdagi eng katta manba –bu haqqoniy yoritilgan tarixdir,”<sup>1</sup> - deb aytib o`tdilar.

Mustaqillik sharoitida Vatanimiz tarixini mukammal o`rganish zaruriyati tug`ildi. Bugungi murakkab davrda mustaqillikni mustahkamlash, uni kelajak avlodlarga yetkazishda o`tmishimizni haqqoniy ravishda o`rganish, undan zaruriy xulosalar chiqarish har bir fuqaroning eng asosiy vazifalaridan biridir. Tariximizning eng murakkab va bahsli davrlaridan biri bu sovet davri tarixidir. Bu davrning atroflicha yoritilmagan sahifalari bisyor. Shunday sahifalardan biri **O`rta Osiyoda** amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanish masalasidir. Ma`lumki, davlatlar o`rtasidagi chegaralar har doim muhim bo`lib kelgan. Bu narsa Konstitutsiyamizning 3-moddasi 2-bandida aytib o`tilganidek “O`zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo`linmasdir”<sup>2</sup>.

Biroq mustabid sovet davrida amalga oshirilgan milliy- hududiy chegaralanish jarayonida yo`l qo`yilgan xatoliklar hamon O`zbekiston va unga qo`shni bo`lgan davlatlar: Turkmaniston, Tojikiston, Qozoqiston va Qirg`iziston respublikalarining hozirgi hayotiga ta`sir etmoqda.

---

<sup>1</sup> Karimov.I.A.Milliy istiqlol mafkurasi- xalq e`tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T: O`zbekiston, 2000. B.26.

<sup>2</sup> O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.T: O`zbekiston, 2009. B. 4.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, postsovet makonida tashkil topgan davlatlar, jumladan O`rta Osiyo davlatlarining o`zaro munosabatlarini uyg`unlashtirish milliy-hududiy chegaralanish tarixini tadqiq etishni taqozo etmoqda.

**Bitiruv malakaviy ishining davriy chegarasi.** Mazkur BMI milliy-hududiy chegaralanishning tarixshunosligiga oid bo`lgani uchun, uning davriy chegarasi 1925-2012-yillarni o`z ichiga oladi. Chunki O`rta Osiyoning milliy-hududiy chegaralanishi masalasi yuzasidan milliy chegaralanish amalga oshirilgan 1925-yildan boshlab bugungi kunimizgacha ko`plab asarlar, monografiyalar, maqolalar chop etilgan.

**Mavzuning o`rganilish darajasi.** Milliy-chegaralanish masalasi har doim olimlar, tadqiqotchilarni qiziqtirib kelgan. Bir qancha mutaxassislar bu mavzuni atroflicha yoritishga harakat qilganlar. Bularga H. Tursunov (“O`zbekiston SSRning barpo etilishi” T: O`zbekiston, 1958.), G. Safarov (“Колониальная революция. Уроки Туркестана”. М: Госиздат. 1921.), Sh. F. Muhammedyarov. (“К истории проведение национально-государственного размежевания Средней Азии в 1924 г “Советское востоковедение. 1955 №1) va boshqa mualliflarning tadqiqotlarida O`rta Osiyoning milliy-hududiy chegaralanish masalasi imkon qadar yoritilgan. Lekin yuqorida nomi keltirilgan olimlar asosan bu mavzuning tarixi bilan shug`ullanganlar. Uning tarixshunosligi esa hali keng o`rganilmagan, shuning uchun ham uni o`rganish zarur degan fikrdaman.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi, O`rta Osiyoda o`tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish masalasiga doir asarlarni o`rganib, ularga xolisona baho berishdir. Bitiruv malakaviy ishining mavzusidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi:

- 20-30-yillarda tarix fanida milliy – davlat chegaralanishi masalasi qanday yoritilganligini ko`rsatib berish;
- 50-80-yillarda tarixiy adabiyotlarda milliy – davlat chegaralanishi muammosi qanday talqin etilganligini yoritish;

- Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixchilari asarlarida milliy – davlat chegaralanishi masalalarining qay tarzda yoritilganligini tadqiq etish;
- milliy – davlat chegaralanishi masalasini xorij tarixchilari asarlarida qanday talqin etilayotganligini ko'rsatish.

**Bitiruv malakaviy ishining uslubiy asosi.** Bitiruv malakaviy ishini yozish tadqiqotchi tomonidan mavzuga milliy va umuninsoniy qadriyatlar, milliy istiqlol g'oyasi nuqtai nazaridan yondashildi. Shu bilan birgalikda yurtboshimiz I.A.Karimovning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q”, “Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch”, “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kabi asarlari, nutq va maqolalarida ilgari surilgan g'oya va fikrlar asos qilib olindi.

**Bitiruv malakaviy ishining manbalari.** Mavzuni yoritishda sovet davri va mustaqillik yillarida yozilgan asarlar, chet elda chop etilgan kitob va maqolalar birlamchi manba bo`lib xizmat qildi.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi.** Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi shundan iboratki, O`rta Osiyoda amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanish tarixshunosligi ilk marotaba maxsus o`rganilmoqda.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ishi mavzuga doir asarlarda keltirilgan ma`lumotlar hamda internet materiallari bilan boyitilgan bo`lib, undan oliy o`quv yurtlari va o`rta maxsus bilim maskanlarida talabalar uchun dars jarayonida maxsus kurslar va seminarlar tashkil etishda foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish,ikki bob, to`rtta paragraf, xulosa hamda foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

## **I bob. Sovet davri adabiyotlarida O`rta Osiyoda milliy-davlat chegaralanishi masalasining yoritilishi**

### **1.1. 20-30-yillarda tarix fanida milliy-davlat chegaralanishi masalalarining yoritilishi**

Bizga ma`lumki, Turkiston azaldan O`rta Osiyo mintaqasidagi xalqlarning yagona maskani va umumiy vatani bo`lib kelgan. Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalarining tub aholisi asrlar davomida urf-odatlarini, an`analari turmush tarzi, diniy e`tiqodlari jihatidan bir - biriga juda yaqin bo`lgan bu mintaqaga yagona hudud, diniy e`tiqod, o`z xo`jaligi va madaniyatining mushtarakligi bilan ajralib turgan. Turkiston hududidagi davlatlarning har birida turkiy xalqlar : o`zbek, turkman, qoraqalpoq, qozoq, va qirg`iz shuningdek tojik xalqi azaldan tarkib topgan edi. Turkiston mintaqasining xalqlari bu yerni o`zlarining yagona yurtlari, asl Vatanni deb bilgan. Mintaqa xalqlari yagona va bir degan g`oya avloddan-avlodga o`tib kelgan, milliy yetakchilarning ijtimoiy - siyosiy va amaliy faoliyatlarida o`z aksini topgan.<sup>1</sup>

Ana shunday qadimiy Turkiston ko`p yillar davomida mustamlakachiilar zulmi ostida ezildi. Mustamlakachilar o`lkani boshqarishda avvalo o`zlariga xizmat qiluvchi mukammal tizimini joriy qilishga intildilar. Bunda ular "bo`lib tashla - hukumdorlik qil" degan tamoyilga amal qildilar.<sup>2</sup>

Ma`lumki, Turkiston xalqlari sovet davlatchiligini tan olmadilar. O`lka taraqqiyparvarlari Turkiston mustaqilligi g`oyasini ilgari surdilar. Ular butun mintaqani yaxlit holda mustaqil bo`lishi, hech bo`lmaganda Rossiya federatsiyasi tarkibidagi muxtoriyat bo`lishi uchun kurash olib bordilar.

Xalqimiz tarixidagi birinchi demokratik hukumat ham "Turkiston muxtoriyati" deb bejiz nomlanmagan edi. Lekin bu hukumat uzoq faoliyat yurita olmadi. Chunki bolsheviklarga bu hukumatning faoliyati to`g`ri kelmasdi. Turkiston Xalq Komissarlar Soveti (XKS) boshchiligida "Turkiston muxtoriyati" tugatildi.

---

<sup>1</sup> Ражабов К, Хайдаров М. Туркистон тарихи. Тошкент, 2002, Б. 155.

<sup>2</sup> Хайдаров М "Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар: тарих ва ҳозирги замон" илмий амалий анжуман материаллари. Т, 2003.

Bunday holatda bolsheviklar tuzumi birinchi galdagi vazifa qilib siyosiy boshqaruvni o'z qo'llariga olish, o'lka xalqlarini yakka lab quyish uchun tinimsiz harakat qildilar.

Buning uchun mahalliy aholiga yot bo'lgan inqilobiy "g'oya"larni zo'ravonlik bilan tiqishtirdilar. Biroq mohiyat - o'lkaning boshqaruvidan mahalliy aholini chetga tutib turish bo'laklarga ajratishi saqlanib qoldi.

Sovetlarning rus bo'lmagan millatlarga nisbatan yuritgan siyosati aslida podsho Rossiyasi qo'llagan siyosatning mantiqiy davomi edi. Podsho Rossiyasi tomonidan zabt etilgan Turkiston yerlarida sovetlar bo'lib tashlash, parchalab egalik qilish siyosatini yuritdilar.<sup>1</sup> Natijada aslida " Turkistonni bo'lib yuborish uchun paydo bo'lgan bu harakat "Milliy - hududiy chegaralanish" degan nom oldi. Xo'sh milliy chegaralanish to'g'risidagi g'oyalar qachon paydo bo'ldi? Milliy chegaralanishdan ko'zlangan maqsad nima? degan haqli savollar tugiladi.

Tarixan tarkib topgan 3 davlatni tugatib, ularning o'rniga yangi davlatlar tuzish fikri o'lka va markazning yevropalik rahbar xodimlardan chiqdi.

1920-yilning boshidayoq Turkiston ASSRni bo'ib tashlash va milliy til belgisiga qarab avtonom respublikalar tuzish masalasi qo'yilgan edi. Bu g'oya turkkommissiya raisi Ya. Rudzutak tomonidan 1920-yil 15-yanvarda qabul qilingan tezislarda uchraydi.<sup>2</sup> Bu tezislar o'sha yilning iyun oyida Rossiya Kommunistlar Partiyasi (RKP) (bolsheviklar) Markaziy Komitetining "Partiyaning Turkistondagi vazifalari haqidagi qaror"- ining loyihasiga kiritilgan. Bu taklifni esa bolsheviklar "dohiysi" V. I. Lenin qo'llab quvvatlagan. Ya'ni O'zbekiston Respublikasini va O'rta Osiyodagi boshqa respublikalarning tashkil etilishida V.I.Leninning "g'oya" lari asos qilib olingan. Chunki u "Turkiston ASSR ning ahvoli va uni bir necha respublikalarga bo'lish istiqbollari bilan bog'lik bo'lgan barcha materiallarni "zo'r e'tibor bilan tahlil etdi".<sup>3</sup>

Mustabid sovet rejimi uchun Turkistonni bo'lib, tashlab uni idora qilish, boshqarish qulay edi. Shuning uchun ham dastlab Turkiston o'lkasiga "avtonomiya"

---

<sup>1</sup> Т.Қаххор.Хур туркистон учун.Т:Чўлпон, 1994. Б.57.

<sup>2</sup> Алимова Д. ва бош. Ўзбекистон тарихи. Т: Шарқ, 2000. Б. 117.

<sup>3</sup>Ўша асар. Б. 155.



maqomi berildi. So`ngra mintaqani parchalab tashlash uchun jiddiy tayyorgarlik ko`rildi. Bu jarayon 7 yil davom etib, 1924-yilda o`zining so`ngi bosqichiga qadam qo`ydi.<sup>2</sup>

1920-yil 13-iyunda Turkkommissiya Turkistonni avtonom respublikalarga bo`lish to`g`risidagi loyihani ko`rib chiqdi, uni ma`qulladi va muhim, markaz talabiga javob bera oladigan tuzatishlar kiritdi. Lenin Turkistonning kartasini (etnografik) tuzishni va unda Turkistonni - O`zbekiston, Qi`rg`iziston va Turkmanistonga bo`lishni ko`zda tutish, ana shu uch qismni birga qo`shish yoki ajratish sharoitlarini batafsil aniqlashni zarur deb hisobladi. Shundan keyinroq, ya`ni 1920-yil 22-iyunda RKP (b)ning Turkistondagi vazifalari to`g`risidagi qaror lohasiga kiritgan tuzatishlarida Lenin "Respublikani uch qismga bo`lish masalasini oldindan hal etib bo`lmaydi,"- deb ta`kidlagan. Xo`sh , nima sababdan Lenin avval loyihani tasdiqlaganu 10 kundan so`ng hali buni bajarish vaqti kelmaganligini alohida ta`kidlagan. Qanday sabablar mavjud bo`lgan? O`sha davr tili bilan aytganda o`lkada milliy chegaralash o`tkazish uchun hali shart-sharoit yetishmagan edi: fuqarolar urushi davom etmoqda, kadrlar yetishmas, etnografik, statistik va boshqa materiallar tayyorlanmagan va o`rganilmagan edi. Ana shu materiallar bo`lmasa o`lkada respublikalarning hududlari, chegaralarini aniqlash mumkin emas edi.<sup>3</sup>

Aslida Turkistonning ma`muriy - hududiy kartasini kaytadan ko`rib chiqish bolsheviklarning qaytadan tuzish siyosatidan o`lkada norozilik kuchayib borgan edi, mustaqillik uchun harakat ko`lami kengayib ketayotgan, milliy masala yuzasidan kurashlar va boshqa sabablarga ko`ra orqaga surilgan.

Milliy respublikalar tuzish g`oyasi yerli xalqlar xayotida tengsizlik mavjudligi, milliy mojarolar kuchayib borayotgani bilan asosladilar. Bu mojarolardan qutulish yo`li esa turkmanlar, qirg`izlar va boshqalarning milliy davlatini tuzish deb e`lon qildilar, amalda esa bu xalqlarni bir-biridan ajratib qo`yishdan boshqa narsa emasdi.

---

<sup>2</sup>Ражабов К, Хайдаров М. Туркистон тарихи. Т: 2002, Б. 155.

<sup>3</sup> Турсунов Х., Бекназаров Н. Ўзбекистон ССР тарихи. Тошкент. Ўзбекистон, 1982. Б. 160,

Milliy chegaralash siyosati tarafdorlari mintaqani milliy til belgisiga qarab ajratish fikriga diqqatni ko'proq qaratganlar, lekin ular bu xalqlarning azaldan xo'jalikka oid iqtisodiy omillari, urf - odatlari, diniy qarashlari, marosimlari bir xilda ekaniga, hatto suv resurslaridan ham birgalikda foydalanishlari, millat ajratmasdan bir - birlarini qo'llab -quvvatlashga e'tiborni kamroq qaratdilar. Shuning uchun ham o'lkada bu siyosatga qarshi norozilik harakatlari vujudga kelgan.

Turkkomissiya qarorlari va Ya.Rudzutak g'oyalariga qarshi Turor Risqulov, Nazir To'raqulov va bir guruh milliy etakchilar o'z noroziliklarini bildirganlar. Ular 1920-yilda ya'ni milliy chegaralanish g'oyasi paydo bo'lgan davrda turkiyzabon xalqlar yagona bo'lib, ularning tarixiy ildizlari, dinlari, an'analari, madaniyatlari mushtarakdir, Turkistonni alohida qismlarga avtonomiyalariga ajratib bo'lmaydi degan g'oyani ilgar surdilar.

O'sha 1920-yillardayoq T.Risqulov boshchiligidagi bir guruh milliy istiqlol fidoyilari Ya.Rudzutak tezislari qoralab, unga qo'shilmasliklarini ilgari surdilar. Ular turkiy xalqlar tarixiy ildizi jihatidan yagona va bo'linmasdir, ularning tili, dini, urf-odati va madaniyati bir ekan, yagona Turkiston ularning mushtarak uyi ekanligi g'oyasini ko'tarib chiqdilar.<sup>1</sup> Ammo bu fikrni markaziy sho'ro hukumati va komfirqa MK, «panturkizm», «panislomizm» va «burjua millatchiligi»da aybladi va uning ilhomchilarini jazoladi. Turkiston, Buxoro va Xorazmda milliy davlat chegaralanishini o'tkazish bilan bog'liq masalalarda 1924-yil iyuniga qadar turli xil fikr - qarashlar bayon etildi. Bu fikr - xulosa va munozaralar yagona Turkiston xalqlari o'rtasida mahalliylik nizolarning kuchayishiga sabab bo'ldi.

Turkistonlik milliy vatanparvarlar Turkiston Kommunistlar Partiyasi (bolsheviklar) dan to'liq mustaqil bo'lishini, Turkkomissiyani bekor qilishni talab qilib chiqdilar. Turor Risqulovning 1921-yil 6-7 martda Moskvada bo'lib o'tgan turkiy xalqlar kommunistlarining II Butunrossiya kengashida so'zlagan nutqida ham ana shunday talab qilingan edi.

Turkistondagi muxolif kuchlarning bunday chiqishlari Moskvani qattiq tashvishga solib qo'ydi. Rossiya Kommunistik Partiyasi (bolsheviklar) Markaziy Qo'mitasi

---

<sup>1</sup> Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ўзбекистон тарихидан материаллар. 3-китоб. Андижон, 2004. Б. 355.

Markazning partiyaviy siyosiy taʼsirini mustahkamlash maqsadida 1921-yil 21-martda Ya.Rudzutakni Turkkommissiya raisi qilib tayinlandi va Turkbyuro tarkibini qaytadan koʻrib chiqdi. Ular oldiga partiyaning milliy masala sohasidagi yoʻlidan barcha ogʻishlarga qaramasdan kurashni kuchaytirishdan iborat ustuvor vazifani qoʻydi. Shu bilan birga "millachilik bilan zaharlangan kommunistlarni Turkiston Respublikasi doirasidan evakuatsiya qilish"<sup>1</sup> ni amalga oshirishni taklif etdi.

Biroq Markaz va uning Turkistondagi "hukumdorlari" boʻlgan Turkkommissiya va Turkbyuro tomonidan kuchayishiga qaramasdan milliy muxolifatchilar mahalliy aholining manfaatlarini izchillik bilan himoya qildilar.

Masalan, Turkiston Kommunistik Partiyasining VI syezdida (1921-yil avgust) Turor Risqulov Rossiya Kommunistlar partiyasi (bolsheviklar) Markaziy Qoʻmitasini Oʻrta Osiyoda zararli milliy siyosat oʻtkazishda, Rossiya qizil armiyasining Fargʻona vodiysida muttasil zoʻravonlikni amalga oshirayotganlikda aybladi. Turor Risqulovning bu fikrini uning oʻrniga Turkiston Avtonom Sovet Sotsalistik Respublikasi Markaziy Ijroiya Qoʻmitasining raisi lavozimiga tayinlangan Abdulla Rahimboev ham tasdiqladi.<sup>1</sup>

Yaʼni, shu yoʻllar bilan milliy rahbarlarimiz Markazning Turkistondagi boshqaruv faoliyatini cheklashga harakat qilganlar. Ular Turkistonning Markaziy sovet organlari yetarli darajada mustahkam ekanligiga, uni ajratmasdan - TASSR ga mustaqillik berish yoʻli bilan boshqarish mumkinligini qayta taʼkidladilar. Lekin ularning imkoniyatlari cheklangan edi. Milliy mustaqillikka boʻlgan har qanday qadam oʻsha davrda "panturkizm" va "panislomizm" deb baholanar edi.

Hokimiyat tarkibidagi milliy etakchilarning keskin talablari va vatanparvarlik chikishlari Markazning keskin noroziligiga sabab boʻlib. Ularni siyosiy jihatdan yakkalab koʻyish maqsadida, Markaz ularga karshi quvgʻinni kuchaytirdi. 1920-yil 25-sentabrda Rossiya Kommunistik Partiyasi (bolsheviklar) Markaziy Qumintasi Tashkiliy byurosining qarori bilan "qoʻpol xatolari uchun" TKP MQ kotibi Nazir Turaqulov, Turkiston Avtonom Respublikasi XKK raisi Qaygʻusiz Otaboev va

---

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи: Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. 2- китоб. Т: 2000. Б. 171.

TASSR MIQ raisi Abdulla Rahimboevlar egallab turgan lavozimlaridan ozod qilindilar.<sup>2</sup>

Ya'ni, markaz o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun "to'siq" lardan xalos bo'lishga qaror qildi. Nihoyat, mahalliy etakchilarning qattik noroziligiga qaramay "milliy-hududiy chegaralannish g'oyasi" o'z kuchini yo'qotmadi va sal keyinrok amalga oshirila boshladi. 1920-yil 20-iyunda RKP (b) MQ ning siyosiy byurosi majlisida Turkiston masalalari yuzasidan qabul qilingan to'rtta qaror keyinchalik "RKP (b) ning Turkistondagi asosiy vazifalari to'g'risida" degan umumiy nom bilan mashhur bo'lib, aholida bandida Turkiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasiga "Turkistonning ma'muriy okruklarini, uning milliy tarkibiga muvofik qayta taqsimlashga kirishish" topshirilgan edi.

Turkistonni milliy avtonom viloyatlarga (respublika bo'lishni darhol amalga oshirib bo'lmaydi, deb takidlagan edi Turkkomissiya a'zosi T.Safarov Markaziy Qo'mitaga yo'llagan maktubida, biroq u yaqin oradagi davr uchun haqiqiy yo'l yo'riq sifatida qabul qilinishi lozim. Sovet voqeligining shundan keyingi tajribasi bu bashorat qilingan yo'l yo'riqlarni botamom tasdiqladi. 1920-yilning ikkinchi yarmidan boshlab bolsheviklar avj oldirib yuborgan amaliy faoliyatning asosiy maqsadini faqat anashu asosda baholash mumkin.

1920-yil sentabrda sovetlarining IX Umumturkiston syezdi TASSR konstitutsiyasini tasdiqladi, uning loyahasini ham Turkkomissiya tayyorlagan edi. Konstitutsiyada aytilishicha « Turkiston unda yashovchi asosiy xalqlarning ya'ni : turkmanlar, o'zbeklar va qirg'izlarning muxtor respublikasi deb e'tirof qilinib, asosiy ilmiy guruhlar, iqtisodiy va maishiy uklad buyicha viloyat va RSFSRning Turkiston Avtonom Respublikasi" degan nom bilan ataladi. Xullas, Turkiston aholisining bo'linishi uning etnik nomi bo'yicha ma'muriy-hududiy tuzilishi Konstitutsiya asosida mustahkamlandi.<sup>1</sup>

Xulosa qilib aytganda, bu davrda Turkiston xalqlarini birlashtiruvchi asosiy omillar hududiy va diniy mansublik edi. Ya'ni, bu mintaqada yashovchi barcha etnik

---

<sup>2</sup> Ўша жойда.

<sup>1</sup> Ўша асар. Б .184.

guruhlar, millatlar bir -biri bilan o`zbek, qirg`iz deb emas balki “musulmon” yoki "farg`onalik", "samarqandlik", "xivalik" kabi atamalar orqali muloqot qilib yashar edilar. Shuningdek, ko`rilayotgan davrda hozirgi O`rta Osiyoning aksariyat xalqlari yagona nom - turkistonlik deb atalar va o`zaro tinch-totuv, qavm-qarindosh bo`lib yashar edilar. Ayni shu omillarni yo`qqa chiqarish va bu yerda hukmronlik qilish uchun sovetlar uzoqni ko`zlagan siyosatni olib bordilar. Qisqacha kilib aytganda, podsho Rossiyasining mustamlakachilik tizimining "Bo`lib tashla - hukmronlik qil" shiori sovetlar davrining ham yurtimiz hududidagi mustamlakachilik siyosatining asosiy tayanchi bo`lib qoldi.

Xo`sh, bu masala o`sha davrdagi adabiyotlarda qanday yoritilgan?

Ma`lumki, milliy-hududiy chegaralanish 1924-1925-yillarda amalga oshirilgan. Biroq uni amalga oshirish g`oyasi ancha avvalroq paydo bo`lgan edi. Shuning uchun ham O`rta Osiyo davlat arboblarning ko`pchiligi bu masalaga qarshi chiqishgan va o`z asarlarida buni bayon etishgan. Mana shunday davlat rahbarlaridan biri Turor Risqulov edi. U o`zining “Inqilob va Turkistonning tub aholisi”, “Qozog`iston”, “Qirg`iziston” asarlarida bu masalaga to`xtalib o`tgan. U o`zining ushbu asarlarida ko`p bora Turkiston hududining birligini saqlash zarurligini ta`kidlab o`tgan. U turkiy xalqlarni yagona xalq, faqat zamon zayli bilan bo`lib yuborilgan,- deb aytgan. Ushbu fikrlari uchun ham uni “panturkizm”da ayblashgan. Turor Risqulov haq bo`lsada, uning qarashlari partiya tutgan yo`lga zid edi. Shuning uchun ham partiya rahbariyati uni Turkiston rahbari bo`lib turishini istamas edilar, chunki agar shunday bo`lsa u Turkistonni birlashtirishga harakar qilishlarini bilishardi. Shu boisdan uni tez-tez bir lavozimdan boshqa lavozimga o`tkazishgan. 1925-yil Stalin musulmon rayonlari kadrlari bilan bo`lgan uchrashuvda uni “Panturkizm”da ayblaydi.

Turkiston turkiy xalqlarning umumiy uyi bo`lgan va shuning uchun ham Turor Risqulov milliy-hududiy chegaralanish vaqtida buni e`tiborga olishni ko`p bora ta`kidlab o`tgan.

Bu davrda rus siyosatchilari ichida ham milliy-hududiy chegaralanish masalasiga qarshilik ko`rsatgan shaxslar bo`lgan. Bulardan biri XX asr

boshlaridagi taniqli rus siyosatchisi Grigoriy Safarov edi. U o'zining "Mustamlaka Inqilobi" asarida Sovet Rossiyasining amalga oshirayotgan milliy siyosatidan noroziligini bildirgan. U o'zning ushbu asarida Turkistonga kelib, bu yerda o'z siyosatini o'rnatgan "insonparvar" shaxslar podshoning ilk bor bu yerda o'rnatgan mustamlaka siyosati hozir davom etayotganligini tanqid qilgan.<sup>1</sup>

Milliy –hududiy chegaralanish amalga oshirilgandan so'ng bolsheviklar O'rta Osiyoga mustahkam o'rtnashib olishdi va o'zlari amalga oshirgan bu siyosatning qanchalik to'g'ri ekanligini isbotlashga harakat qilishdi. Mana shunday yozuvchilardan biri I.I.Kriltsov bo'lgan. Uning 1925-yil 15-yanvarda "Вестник юстиции Узбекистана" jurnalida chop ettirgan "Государственное размежевание Средне-Азиатских Республик" nomli maqolasi xuddi shu masalaga bag'ishlangan.

Uning ushbu maqolasi quyidagicha boshlangan:

O'rta Osiyo respublikalarining milliy-davlat chegaralanishi milliy muammo sifatida mahalliy nashrda yetarli darajada, biroq ijtimoiy-huquqiy jihatdan kamroq yoritilgan. Milliy-chegaralanish natijasida O'rta Osiyoda ikkinchi va bo'lishi muqarrar bo'lgan muhim dunyoviy voqeani ko'radilar.

Ushbu maqolada to'liq bo'lmasa ham, O'rta Osiyo respublikalarining milliy-hududiy chegaralanishini va ularning ittifoq tarkibiga kirishining ijtimoiy-huquqiy belgilarini o'rganildi.<sup>2</sup>

Unda asosan milliy-hududiy chegaralanishi natijasida tashkil topgan yangi davlatning huquqiy maqomi ularning SSSR tarkibidagi holatlari haqida to'xtalib o'tilgan.

Ma'lumki, milliy-hududiy chegaralash bilan bir qatorda iqtisodiy chegaralash ham amalga oshirildi. Shuning uchun ham I. I. Kriltsov o'zining "Народное хозяйство Средней Азии" jurnalida chop ettirgan "О причинах экономического

---

<sup>1</sup> Shamsuddinov R Vatan tarixi T: Sharq, 2010. B. 225.

<sup>2</sup> И. И. Крыльцов. Государственное размежевание Средне-Азиатских Республик. //Вестник юстиции Узбекистана 1925. №1

размежевание Средней Азии” nomli maqolasida iqtisodiy chegaralanishni qanday amalga oshirganligini ko`rsatib o`tgan.

O`sha davr tarixchilaridan yana biri I. D. Levin o`zining 1934-yilda “Революция и национальности” jurnalida chop ettirgan “Средне Азиатские советские республики и их международное значение” nomli maqolasida yangi tashkil topgan O`rta Osiyodavlatlarining xalqaro ahamiyati haqida so`z yuritgan.

Yuqoridagilardan tashqari O`rta Osiyo respublikalari davlat arboblarning ushbu masala yuzasidan bir qator asrlari chop etilgan. Masalan, yangi tashkil topgan O`zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining rahbari Fayzulla Xo`jayevning “К истории революции Бухаре и национальное размежевание Средней Азии” nomli asarida ushbu masala bayon etilgan. Ma`lumki, Fayzulla Xo`jayev dastlab milliy-hududiy chegaralanish o`tkazilishiga qarshi bo`lib, sovetlarning bu siyosatini chor Rossiyasi olib borgan siyosatning davomi sifatida ko`rgan, biroq ularning tazyiqi ostida o`zining bu fikrlaridan voz kechishga majbur bo`lgan.

XX asrning 20-30-yillarida milliy davlat chegaralanishi masalasining yoritilishi haqida xulosa qilib aytadigan bo`lsak, 20-yillarning boshlarida yaratilgan asarlarda milliy chegaralanishning amalga oshirilishiga qarshilik sezilarli bo`lsa, 30-yillarga kelib bu ishning amalga oshirilishi O`rta Osiyodavlatlarining siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy ahvolini tubdan yaxshilaganligi ko`rsatib o`tilgan. Bu o`z navbatida sovetlarning qatag`onlik siyosatining natijasi ham edi.

## **1.2. 50-80-yillarda tarixiy adabiyotlarda milliy-davlat chegaralanishi masalasining talqini**

Ikkinchi jahon urushidan keyin Sobiq Ittifoqda ilm-fanning turli sohalari rivojlana boshladi. Tarix fani ham bundan mustasno emas. Bu davrda O`rta Osiyo tarixiga oid ko`plab ilmiy izlanishlar olib borilib, bir qator tarixiy asarlar yaratildi. 1924-1925-yillarda o`tkazilgan milliy –hududiy chegaralanish masalasini o`rganish davom etdi.

Rus tarixshunoslaridan biri Sh. F. Muhammadyorov bu masala tarixini o`rgangan olimlardan biri hisoblanadi. U ning “Sovetskoye Vostokovedeniye” jurnali 1955-yil 1-sonida nashr etilgan maqolasi “1924-yilda O`rta Osiyoda o`tkazilgan milliy –davlat chegaralanishi tarixi” deb nomlanib, aynan shu masalaga bag`ishlangan.

Maqolada ko`rsarilishicha, O`rta Osiyoda o`tkazilgan milliy–hududiy chegaralanish bu yerdagi xalqlarning hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Uzoq asrlik tarixi davomida O`rta Osiyo xalqlari o`z davlatlariga ega bo`lmaganlar. ”Buyuk Oktabr Inqilobi”gacha ular Rossiya va uning vassallari –Buxoro amirligi va Xiva xonliklari tarkibida yashashgan. O`zbeklar Buxoro, Xiva va Turkiston o`rtasida, turkmanlar Buxoro, Xiva va Turkiston o`rtasida, qoraqalpoqlar Xiva va Turkiston o`lkasining Amudaryo bo`limi o`rtasidida ajratilgan edi. Bu xalqlardan hech biri hech qayerda butunlay ko`pchilikni tashkil etmas edi. Podsho amaldorlari hamda Xiva va Buxorodagi hukmron sinflar xalqlar o`rtasidagi o`zaro kelishmovchilikni saqlashga harakat qilishgan. O`rta Osiyoxalqlari o`z davlatlarini tuzish va o`z iqtisod va madaniyatlarini rivojlantirish huquqidan mahrum edilar.<sup>1</sup>

Dehqonchilik va hunarmandchilik xo`jalikning asosiy tarmoqlari bo`lgan. Sh. F. Muhammadyarovning fikriga ko`ra, “Buyuk” Oktabr inqilobining g`alabasi O`rta Osiyo xalqlarining jonlanishiga yo`l ochdi va ularning sotsialistik millat bo`lib rivojlanishiga sharoit yaratdi. Har bir xalqning tarqoq qismlari birlashib , o`z sovet sotsialisik davlatlarini tuzish imkoniga ega bo`lishdi.

---

<sup>1</sup> Мухаммедьяров Ш. Ф. К истории проведение национально-государственного размежевания Средней Азии в 1924 г.// Советское Востоковедение.1955 №1. Б. 44.



1917-yil 15-noyabrda qabul qilingan “Rossiya xalqlari huquqlari deklaratsiyasi” Rossiya xalqlarining tengligi va erkinligini e`lon qildi va ularga o`z davlatlarini tuzishga imkoniyat yaratdi. 1917-yil 14-noyabrda Toshkentda sovet hokimiyati o`rnatildi va u Turkistonning viloyat va shaharlariga juda tez tarqala boshladi. 1918-yil 1-mayda o`tkazilgan sovetlarning V-butun Turkiston qurultoyida Turkisyonning o`zini o`zi boshqarishi e`lon qilindi. Sobiq Turkiston General-Gubernatorligi hududida Turkiston Avtonom Sovet Respublikasi(TASR) tashkil etildi.<sup>1</sup>

Rossiya va Turkistonda Sovet hokimiyatining o`rnatilishi Buxoro va Xiva xonliklari xalqlariga amir va xon hokimiyatini ag`darib tashlash uchun imkoniyat yaratdi. Bu kurash natijasida 1920-yil 27-aprelda Xivada Xorazm Xalq Sovet Respublikasi, 1920-yil 6-8-oktabrda Buxoro xalq deputatlarining I qurultoyida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil etildi.<sup>2</sup>

O`rta Osiyo da sovet hokimiyati tuzilishi natijasida vujudga kelgan Turkiston ASSR Buxoro XSR, Xorazm XSRLari ko`p millatli davlatlar bo`lib, shuning uchun ham uchala davlat hududida Kommunistik Partiya va sovet hokimiyati organlari milliy masala muammosini va xalqlarng o`zaro munosabatlarini tartibga solishda katta ishlarni amalga oshirdi. Rossiya Kommunistik Partiyasi Markaziy Komiteti tomonidan “ Muxtor Turkistonning ahvoli”da 1920-yil martda chop etilishicha

“Turkiston unda yashovchi xalqlarning ya`ni: turkmanlar, o`zbeklar va qirg`izlarning muxtor respublikasi deb e`tirof qilinib, asosiy ilmiy guruhlar, iqtisodiy va ma`ishiy ukladi bo`yicha viloyat va “RSFSRning Turkiston Avtonom Sovet Respublikasi degan nom bilan ataladi”<sup>3</sup>

---

<sup>1</sup> Мухаммедяров Ш. Ф. К истории проведение национально-государственного размежевания Средней Азии в 1924 г. // Советское Востоковедение. 1955 №1. Б. 45.

<sup>2</sup> Мухаммедяров Ш. Ф. К истории проведение национально-государственного размежевания Средней Азии в 1924 г. // Советское Востоковедение. 1955 №1. Б. 45.

<sup>3</sup> Мухаммедяров Ш. Ф. К истории проведение национально-государственного размежевания Средней Азии в 1924 г. // Советское Востоковедение. 1955 №1. Б. 45.

Sovet hokomiyatining dastlabki yillarida milliy maslalar bo'yicha xalq komiteti Turkistondagi bu masala bo'yicha ko'plab ishlarni amalga oshirdi. Turkiston MIKda qirg'iz, o'zbek va turkman bo'limlari tashkil etildi. Turkiston ASSRning tub aholisini joylarda sovet hokimiyatining o'rnatilishida yanada jonliroq ishtorok etishlarini ta'minlash maqsadida 1918-yilning 21-martida XKS volost, qishloq va ovullarda barcha hujjatlarni mahalliy yozuvda olib borishlarini ta'minladi. 1921-yil Turkiston ASSRning Kaspiyorti viloyati o'zining eski Turkmaniston viloyati nomi bilan o'zgartirildi.

Milliy masalaning hal etilishi Buxoro va Xorazm Respublikalarida ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni talab etardi chunki, inqilobgacha bo'lgan davrdan qolgan o'zaro ishonchsizlik juda ham kuchli edi. Ushbu davlatlarning Konstitutsiyalarida ularning hududida yashovchi xalqlarning millatidan qat'i nazar teng huquqli ekanligi mustahkamlab qo'yilgan edi. Mehnatkashlarning ko'proq qismini sovetcha qurilishga jalb etish uchun milliy qurultoylar o'tkazildi, Buxoro va Xorazm XSRning MIKlarida turkman va qirg'iz milliy bo'limlari tashkil etildi. 1924-yil 28-mayda Sharqiy Buxoroning MIKi shakllantirildi. 1923-yil oktabrda bo'lgan sovetlarning IV Butunxorazm qurultoyida XXSR tarkibida markazi Toshhovuz bo'lgan Turkman viloyati va markazi Xo'jayli bo'lgan Qirg'iz-Qoraqalpoq viloyatlari tashkil etildi. O'zbeklar ko'pchilikni tashkil etgan hududlar markazi Yangi Urganch bo'lgan Yangi Urganch viloyatiga o'tkazildi. Buxoro va Xorazm Respublikalarida va TASSRning davlat apparatlarida barcha millatlar vakillari uchun o'rinlar ajratildi. Shuning uchun ham 1922-yilgi Sovetlarning III-Butunxorazm qurultoyida XXSRda millatlar o'rtasida boshqa kelishmovchiliklar qolmagani aytib o'tildi. Biroq milliy viloyatlarning tashkil etilishi O'rta Osiyo xalqlarining bo'lib yuborilgan qismlarini to'liq birlashtira olmas edi. Lekin bu davrda Turkiston ASSRning bo'lib yuborilishi va O'rta Osiyodagi har bir xalqning o'z davlatini tuzishi uchun yetarli shart-sharoitlar mavjud bo'lmaganligi uchun ham buni amalga oshirib bo'lmas edi. 1922-yilda SSSRning tashkil topishi O'rta Osiyoxalqlariga o'z davlatlarini tuzish imkonini berdi, biroq butun O'rta Osiyo hududida milliy masalani hal etish ichki kurashlar

tufayli to`xtab qolayotgan edi. Bundan tashqari TASSRdan farqli ravishda BXSР va XXSРlari SSSR tarkibiga kirishmas va sotsialistik davlatlar emas edi. 1923-yil 17-sentabrda o`tkazilgan IV Butunxorazm sovetlari qurultoyida XSSR tuzildi. 1924-yil sentabrda esa Buxoro SSR tuzildi. Shunday qilib sovet hukumati va KPning to`g`ri o`tkazgan milliy siyosati natijasida O`rta Osiyoda milliy –davlat chegaralanishini amalga oshirish mumkin bo`lgan aniq tarixiy holat vujudga keldi. Milliy-davlat chegaralanishi davriga kelib O`rta Osiyo aholisi soni 8mln131mimg 62 kishini tashkil etar edi. Ulardan 5 254 581 nafari Turkiston ASSRda, 2 236 437 nafari Buxoro XSSR da, 640 044 nafari Xorazm XSSRda istiqomat qilar edi. O`rta Osiyoda yashab turgan jami o`zbeklardan 66, 5 foizi Turkiston ASSRda, 22, 2 foizi Buxoro va 11, 3 foizi Xorazm respublikalarida yashar edi. O`zbeklar TASSR aholisining 61,1 foizini tashkiletar edi. O`rta Osiyo dagi jami turkmanlardan 42,2 foizi Turkistonda, 27,0 foizi Buxoro va 29, 8 foizi Xorazmda yashar edi:O`rta Osiyo tojiklaridan 47,7 foizi Turkiston va 52, 3 foizi Buxoroda yashar edi.<sup>1 2</sup>

O`zbek, turkman, qirg`iz, qoraqalpoq, tojik, qozoqlar milliy chegaralanish masalasiga juda katta qiziqish bilan qarashgan. Milliy chegaralanish ularning har biriga yagona davlat bo`lib birlashishlariga imkoniyat berar edi. RKPning 10-12-syezdlarining milliy masala bo`yicha tarixiy qarorlari O`rta Osiyo kommunistlari va mehnatkashlarini amaliy va nazariy jihatdan qurollantirdi va milliy davlat chegaralanishi uchun harakat dasturiga aylandi. Buxoro, Xorazm va Turkistonning 1924-yilgi turli kengash va konferensiyalarida milliy chegaralanish masalasining dastlabki muhokamasi bo`lib o`tdi.

O`rta Osiyo xalqlarining xohishiga binoan 1924-yil 5-aprelda RKPMK milliy-davlat chegaranishi o`tkazilishini qo`llab quvvatladi. 1924-yilning yozida Turkiston, Buxoro va Xorazm mehnatkashlari milliy chegaralanish maslasini keng muhokama qilishdi. Barcha respublikalar va viloyatlardagi gazetalar bu masla

---

<sup>1</sup> Мухаммедьяров. Ш. Ф. К истории проведение национально-государственного размежевания Средней Азии в 1924 г. Советское Востоковедение.1955.№1 Б. 46.

Ўрта Осиё коммунистик ташкилотларининг тарихи. Т. Ўзбекистон. 1969. Б.765.

Ўзбекистон ССР тарихи. Т. ФАН. 1971. Б. 393

bo`yicha qabul qilingan rezolyutsiyalar, o`tkazilgan yig`ilishlar hisobotlarini bayon qilib borishdi. 1924-yil 27-avgustda Toldiqo`rg`ondagi kommunist, komsomol, ishchi va dehqonlarning umumiy yig`ilishida yangi tuzilgan respublikalar o`rtasidagi aloqalarni olib borishlari va ularning SSSRga kirishlari zarur deb topildi. Namangandagi kasaba uyushmalari yig`ilishida qabul qilingan rezolyutsiyada “O`rta Osiyo chegaralanishi yana bir bor shuni ko`rsatdiki, faqatgina kompartiya bayrog`i ostidagina millatlar erkin bo`lishlari va rivojlanishlari mumkin”-deb, ko`rsatib o`tilgan edi.

1924-yil 25-sentabrda milliy davlat chegaralanishi masalasini hal etish uchun Toshkentda Turkiston MIKning favqulodda XII sessiyasi bo`lib o`tdi. Sessiya o`zbek, qirg`iz, qozoq, tojik, turkman xalqlari ishchi va dehqonlarining istaklarini inobatga olgan holda ularga TASSR tarkibidan chiqishga va o`zlarining mustaqil O`zbekiston va Turkmaniston Sovet Sotsialistik Respublikalarini, Qoraqirg`iz va Tojik avtonom viloyatlarini tuzish to`g`risida qaror qabul qildi. Turkiston MIK Turkiston va Markaziy Osiyoning barcha xalqlariga quyidagicha murojaat qildi:

“ Turkistonning Milliy davlat chegaralanishi millatlar o`rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda O`rta Osiyoxalqlarining mustahkam milliy tinchligini ta`minlashda tengsiz qadamdir. Milliy-davlat chegaralanishi orqali biz millatlar o`rtasidagi tinchlikni va millatlarning bir-biriga o`zaro ishonchini cheksiz darajada mustahkamlaymiz” .

Buxoro va Xorazmning yoqori organlari ham chegaralanish haqida shunday qarorlar qabul qildi. 1924-yil 14-oktabrdagi Butunrossiya MIK ning XI chiqiriq II sessiyasida Turkiston MIKning favqulodda uchinchi sessiyasida milliy-hududiy chegaralanish masalasidagi qarorini tasdiqladi va Turkiston ASSRni RSFSR tarkibidan ajratdi. Bundan tashqari sessiya O`zbekiston SSR tarkibida Tojikiston Respublikasini tashkil etdi. 1924-yil 27-oktabrdagi SSSR MIKning II chaqiriq ikkinchi sessiyasida “O`rta Osiyodagi sovet respublikalarining chegaralanishi va O`zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi va Turkmaniston Sovet Sotsialistik Respublikalarining Ittifoqqa qabul qilinishi haqida”gi qarorni qabul qildi.

1925-yil fevralida O`zbekiston SSR va Turkmaniston SSR sovetlarining dastlabki syezdlari bo`lib o`tdi va u unda O`zbekiston SSR va turkmaniston SSR davlatlari tashkil topdi va ular erkin, o`z xohishlari bilan SSSR tarkibiga kirishlarini maqullovchi deklaratsiyalar qabul qilindi. 1925-yil martda Qoraqirg`iz Avtonom viloyatining birinchi syezdi bo`lib o`tdi.

1925-yil 15-martda O`zbekiston SSR tarkibida Tojikiston Avtonom SSR tashkil topdi. 1925-yil 11-mayda RSFSR Butunrossiya Sovetlarining XII syezdi “Tukiston ASSRning bo`linishi haqida”gi qaror qabul qildi. Butunrossiya sovetlarining III syezdida qabul qilingan aktga binoan SSSRning ittifoqdosh davlat bo`lib shakllanishida muhim tarixiy voqea bo`lgan O`rta Osiyoning milliy-hududiy chegaralanishi yakunlandi.

Chegaralanish natijasida uchta ko`p millatli davlat o`rniga O`rta Osiyoda bir nechta bir millatli davlatlar tashkil topdi va ular o`z xohishlari bilan SSSR tarkibiga kirishdi. O`zbek, turkman, qirg`iz, tojik va qoraqalpoqlar birinchi marta o`zlarining milliy davlatlariga ega bo`lishdi va suveren xalq bo`lishdi. Yangi milliy davlatlar o`rtasida chegaralar o`tkazilayotgan paytda barcha shart-sharoitlar inobatga olindi. Chegaralanish o`tkazilayotgan paytda yangi tuzilayotgan davlatlarning iqtisodiyoti ham inobatga olinib, ular o`rtasidagi fabrika-zavod korxonalari, ekin maydonlari, chorva va boshqalar taqsimlangan holda iqtisodiy chegaralanish amalga oshirildi.

O`rta Osiyo ning alohida respublikalari va viloyatlari quyidagicha taqsimlandi.

	<b>Aholi soni (kishi)</b>	<b>Aholi soni (foiz)</b>
O`zbekiston SSR	3 963 285	48, 7
Tojikiston ASSR	793 503	9, 1
Turmaniston SSR	855 114	10, 5
Qoraqirg`iz avt. vil(hozirgi Qirg`iziston SSR)	714 648	8, 8
Qoraqalpog`iston avt vil.	219 106	2, 7

Qirg`iziston ASSR(hozirgi		
Qozog`iston ASSR)	1 468 724	18, 1
Bahsli hududlar	170 063	2, 1

Har bir respublikaning milliy tarkibi quyidagicha quyidagicha harakterlandi:

Agar chegaralanishgacha o`zbeklarning katta qismi(66, 5%)Turkiston ASSRda yashab, aholining 41, 1 % ni yashkil etgan bo`lsa, chegaralanishdan so`ng O`zbekiston SSR tarkibiga o`zbeklarning 82, 6 foizi kirdi va ular aholining 76, 1 foizini tashkil etdi. Turkmanlar chegaralanishgacha Turkiston, Buxoro yoki Xiva aholisining asosiy qismini tashkil etmagan bo`lsa, chegaralanish natijasida ularning 94, 2 foizi birlashtirildi va ular Turkmaniston aholisining 71, 9 foizini tashkil etdi. Huddi shuningdek tojiklar ham Turkiston aholisining 7, 7 %, Buxoroda 31 % - Tojikiston ASSRda esa ularning 75, 2 % yashar edi va ular aholining 7, 2 % ni tashkil etdi.

Qirg`izlar ilgari Turkiston ASSRda aholining bor yo`g`i 10, 8% ni tashkil etgan bo`lsa, o`zlarinig Qoraqirg`iz avtonom viloyati tashkil etilganidan so`ng u yerda barcha qirg`izlarning 86, 7% birlashdi va ular aholining mutlaqo ko`pchiligini , ya`ni 66, 2 % ni tashkil etdi. Turkistonda yashovchi Qoraqalpoqlar u yerda aholining 1, 4 % ni, Xorazm qora-qalpoqlari bilan birga ularning 73, 9% birlashdi va ular viloyat aholisining 38, 1% ni tashkil etdi. Qirg`izistonASSRda (hozirgo Qozog`iston SSR) jami qozoqlarning 93, 4 % birlashdi va ular jami aholining 57, 4%ni tashkil etdi. Bunday chegaralanish natijasida milliy davlatlarning tuzilishi O`rta Osiyodagi milliy masalarning anchayin mukammal yechimi edi. O`rta Osiyoning Sotsializmga o`tishini tezlashtirdi. Milliy-davlat chegaralanishi O`rta Osiyo xalqlari va Butun SSSR xalqlari o`rtasidagi do`stlikni mustahkamladi.<sup>1</sup>

Sh. F. Muhammadyorovning ushbu maqolasi haqida xulosa qiladigan bo`lsak, u O`rta Osiyodagi milliy-davlat chegaralanishiga ijobiy baho bergan

<sup>1</sup> Мухаммедьяров. Ш. Ф. К истории проведение национально-государственного размежевания Средней Азии в 1924 г. Советское Востоковедение.1955.№1

va bu hodisa O`rta Osiyoxalqlarining rivojiga o`zining katta hissasini qo`shganligini yozib qoldirgan.

XX asrning 50-yillarida milliy-davlat chegaralanishi masalasi bilan shug`ullangan olimlardan yana biri Habib Tursunovdir. U o`zining 1958–yilda nashr etilgan “O`zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining barpo etilishi “deb nomlangan kitobida milliy-davlat chegaralanishi masalasiga toxtalib o`tadi. Asarning II bobi “O`rta Osiyoda milliy-davlat chegaralash o`tkazilishi va O`zbekiston SSRning barpo etilishi “ deb nomlanadi. Habib Tursunov bu masalani yoritishda V.I.Lelin, U.D.Levin, I.I.Kriltsov , I.V.Stalin asarlaridan foydalanadi. Sovet davridagi asarlar kabi, bu asar ham kommunistik mafkura asosida yozilgan. Shuning uchun ham O`rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi masalasiga quyidagicha baho beriladi

Milliy-davlat chegaralashi Kommunistik Partiya va Sovet hokimiyatining lenincha milliy siyosatiga to`liq mos kelar edi. Milliy-davlat chegaralashning o`tkazilishi, davlatlarning hatto ajrab chiqish va mustaqil milliy sovet respublikalarining yagona davlat ittifoqiga ixtiyoriy ravishda birlashish huquqini beruvchi millatlarning o`z taqdirini o`zi belgilash prinsliplarini e`lon qilgan Kommunistlar partiyasi va Sovet hokimiyatining lenincha milliy siyosatiga to`lig`icha mos kelardi.<sup>1</sup>

Asarga ko`ra miliy chegaralanish maqsadi quyidagicha talqin etilgan:

Proletar ipternatsionalizmi bayrog`i ostida o`tkazilgan milliy-davlat chegaralash o`zaro milliy ishonchsizlikning o`sha vaqtda bo`lgan qoldiqlarini yo`qotishga, O`rta Osiyoda millatlararo tinchlik va Sovet hokimiyatini yanada mustahkamlashga, keng mehnatkashlar ommasini sotsialistik jamiyat qurishga yanada faol qatnashtirishga. Sovet Ittifoqi xalqlari do`stligini mustahkamlashga olib kelishi kerak edi, va haqiqatdan ham shunday bo`ldi.<sup>2</sup>

Milliy-davlat chegaralanishidan avval O`rta Osiyoda xalqlarning joylashuvi quyidagicha bo`lgan:

---

<sup>1</sup> Турсунов Х. Ўзбекистон Совет Социалистик Республикасининг барпо этилиши.Т. ФАН. 1958.Б.106

<sup>2</sup> Турсунов Х. Ўзбекистон Совет Социалистик Республикасининг барпо этилиши.Т. ФАН. 1958.Б.106.

O'zbeklar Turkiston ASSRning Farg'ona, Samarqand viloyat larida, Sirdaryo viloyat ining Toshkent va Mirzacho'l uezdlarida yashar edilar. O'zbeklarning ayrim gruppalari Sirdaryo viloyat ining Chimkent va Turkiston uezdlarining ba`zi rayonlarida yashaganlar; ular Buxoro respublikasining Boysun, Buxoro, G`uzor, Qarshi, Karmana, Nurota, Shahrisabz, Sherobod va Sariosiyo viloyatlarida (viloyatlarida), Xorazm respublikasida esa, Yangi Urganch viloyatida va Xiva shahri rayonida yashaganlar. Turkmanlar Turkiston ASSRning Turkmaniston viloyatida, Buxoro respublikasining janubida (Chorjo'y viloyati) va Xorazm respublikasining janubiy va janubi-g'arbiy qismlarida (Turkman — Toshhovuz viloyatlarida) g'uj bo'lib yashaganlar.

Tojiklarning ko'pchilik qismi Buxoro respublikasining sharqiy qismida yashagan. Ular Samarqand viloyatining Xo'jand uezdida ko'pchilikni tashkil qilganlar. Tojiklar Samarqand viloyatining Samarqand uezdining ba`zi rayonlarida (Pomir, Konibodom, Isfara va boshqalarda) hamda Markaziy Buxoroda yashagan.

Qirg'izlar Turkiston ASSRning Qorako'l (Prjevalsk), Yettisuv viloyatining Pishpak, Norin uezdlari hududlarida, Sirdaryo viloyat , Avliyoota uezdining bir qismida va Fargona viloyatining ba`zi rayonlarida (O'sh uezdi, Andijon uezdining Jalolobod volosti va boshqa joylarda) yashaganlar.

Qoraqalpoqlar Turkiston respublikasining Amudaryo viloyatida va Xorazm respublikasining shimoli-sharqiy rayonlari (Qozoq-Qoraqalpoq viloyati)da ko'pchilikni tashkil qilganlar. Qoraqalpoqlarning ayrim gruppalari Farg'ona viloyatining ba`zi rayonlarida yashar edilar.

Qozoqlar Turkiston ASSR ning shimoliy qismida: Yettisuv viloyatining Olmaota, Jarkent, Toldiqo'rg'on uezdlarida va Sirdaryo viloyatining Oqmachit, Avliyoota, Kazalinsk, Turkiston hamda Chimkent uezdlarida ko'pchilikni tashkil qilish edilar. Qozoqlar Toshkent va Mirzacho'l uezdlarining ba`zi rayonlarida ham yashar edilar.<sup>1</sup>

Ma'lumki, O'rta Osiyoni milliy-hududiy chegaralash masalasiga kommunistik partiya rahbarlik qilgan. 1924-yilning boshlarida partiya komitetlarining

---

<sup>1</sup> Турсунов Х. Ўзбекистон Совет Социалистик Республикасининг барпо этилиши.Т. ФАН. 1958.107-бет



majlislarida Turkiston, Buxoro, Xorazm partiya syezdlarida ishtirok etgan delegatlar o'z nutqlarida mehnatkash ommaning istaklarini ifoda etib, O'rta Osiyoda milliy chegaralash o'tkazish vaqti kelib yetganini gapirdilar.

Turkiston Sovetlari XII syezdi qatnashchilarining nutqlarida ham bu to'g'rida gapirib o'tilgan bo'lsa ham, o'sha vaqtda masala hal qilinmagan edi. Syezd Turkiston Sovetlari Markaziy Ijroiya Komiteti va Xalq Komissarlari Sovetining dokladiga muvofiq rayonlashtirishga oid qaror qabul qildi. Syezd rezolyutsiyasida shunday deyilgan edi: «... Turkiston respublikasini iqtisodiy va tabiiy-tarixiy xususiyatlari asosida rayonlashtirish uchun hamma tanyorgarlik ishlarini tugallash va shunga muvofiq ma'muriy hamda xo'jalik boshqarish ishlarini qayta tuzish kerak.»<sup>2</sup>

O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishning o'tkazilishi bu yerda yashovchi millatlarning manfaatlariga zid edi. Shuning uchun ham ko'pchilik davlat arboblari bu masalaga o'z noroziliklarini bildirishgan. Masalan, Farg'ona va Xorazmliklar o'z hududlarida chegaralanish o'tkazilishiga qarshi bo'lishgan. Asarda ularning bu hatti-harakatlari quyidagicha yoritilgan:

O'sha davrda ba'zi mahalliy partiya va sovet xodimlari Turkistonni chegaralashga oid bo'lgan ochiqdan-ochiq xato loyihalarni ilgari surgan edilar. Masalan, Turkiston ASSR Sovetlari XII syezdiga Farg'ona viloyatidan kelgan delegatlarning bir qismi RIKP (b) Markaziy Komiteti O'rta Osiyo byurosi va Turkiston Kompartiyasi Markaziy Komitetiga yozgan o'z maktublarida «RSFSRning bevosita qaramog'ida bo'lgan Farg'ona Avtonom viloyati»ni barpo qilib ajratish haqidagi masalani qo'ygan edilar. Bu loyiha maqsadga muvofiq bo'lmagani uchun qabul qilinmadi.

O'sha davrlarda Farg'ona ko'p millatli viloyat hisoblanar edi, chunki u erda o'zbeklar, qirg'izlar, tojiklar va boshqa millatlar yashar edi. O'zbeklar Qo'qon uyezdida (78.5 foiz ) va Farg'ona uyezdida ko'pchilikni (75 foiz ) tashkil qilar edi. Shuningdek, ular Andijon (65,5 foiz ) va Namangan (62,5 foiz )

---

<sup>2</sup> Турсунов Х. Ўзбекистон Совет Социалистик Республикасининг барпо этилиши. Т. ФАН. 1958. 109-бет

uyezdlarining ko'pchilik volostlarida yashar edilar. O'sh uyezdida o'zbeklar kamchilikni (35 foiz ) tashkil qilganlar. Umuman O`rta Osiyodagi hamma o'zbeklarning 40 foizdan ko'prog'i Farg'ona viloyatida yashar edi. Turmushning o'zi, milliy ongning o'sishi, revolyutsiya tufayli ozod bo'lgan o'zbek xalqining iqtisodiy va siyosiy tomondan yuksalishi Farg'ona o'zbeklarini qo'shni Samarqand va Sirdaryo viloyatlaridagi, shuningdek Buxoro va Xorazmdagi o'zbek yerlari bilan qo'shilishi zarurligini va muqarrarligini ko'rsatar edi.

Tojiklar Qo'qon uyezdining So'x, Isfara, Konibodom volostlarida ko'pchilikni tashkil qilganlar. Ular ekonomika va madaniyat sohasida Samarqand viloyatining qo'shni Xo'jand uyezdi, Buxoro respublikasi sharqiy qismining asosiy tojik aholisi bilan jips bog'langan edi. Revolyutsiyadan beri parchalab yuborilgan tojik yerlarini birlashtirish zarurligi o'z-o'zidan ma'lum edi.

Nihoyat, O'sh uyezdi va Andijon uyezdi, Jalolobod volostining ko'pchilik aholisi qirg'izlardan iborat edi, ular, Shimoliy Qirg'iziston aholisi bilan qo'shilishga harakat qilar edilar.

O'zbek, tojik, qirg'iz yerlarining, shuningdek O`rta Osiyodagi boshqa xalqlarning yerlarini tegishli sovet milliy respublikalariga va sovet viloyat lariga bunday tarixiy qonuniy ravishda birlashuvi butun O`rta Osiyoda milliy chegaralash o'tkazilishi tufayli amalga oshirilishi mumkin edi va haqiqatdan ham shunday birlashdi.

Qandaydir «Farg'ona avtonomiyasini» tuzish loyihasining Farg'ona vodiysida yashovchi millatlardan birortasining manfaatiga mos kelmasligining sababi ham shunda edi. ..Bu loyihaning qabul qilinishi Farg'ona viloyat idagi hamma millatlarning O`rta Osiyodagi boshqa viloyatlar bilai sovet milliy respublikalar doirasida qo`shilishiga to`squinlik qilar edi.

Farg'onani avtonomlashtirishning O`rta Osiyodagi millatlarning o'zaro munosabatlari nuqtai nazaridan noto'g'riligining sababi ham shu edi. Bu loyiha iqtisodiy tomondan ham noto'g'ri edi. Ma'lumki, Farg'onaning o'zbeklar yashaydigan yerlari hozirgi O'zbekiston territoriyasining boshqa rayonlari bilan iqtisodiy tomondan jips bog'langan. Farg'onani ayirib qo'yish butun o'zbek

yerlarining xo'jalik yaxlitligini buzilishga olib kelar va o'zbek xalqining iqtisodiy va madaniy tomondan yanada rivojlanishiga to'sqinlik qilar edi. Tojik va qirg'iz yerlari to'g'risida ham xuddi shunday deyish mumkin.

Shuning uchun ham RKP (b) Markaziy Komiteti O'rta Osiyo byurosi va Turkiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti Ijroiya byurosning 1924-yil 13-yanvarda bo'lib o'tgan qo'shma majlisi qarorida «Shu sharoitda Farg'onani fargonalik o'rtoqlar taklifiga muvofiq ravishda avtonom viloyatga ajratish masalasini ko'tarib chiqish xatodir, chunki viloyatlarni milliy territoriyalarga bo'lish ishi partiyaning VIII, X va XII syezdlari qarorlarida ko'rsatilgan yo'ldan borishi kerak»ligi ko'rsatilgan edi.

Xorazmda milliy chegaralash o'tkazish protsessi ham qizg'in kurash sharoitida o'tdi. 1924-yil mart oyida Xorazm partiya va sovet aktivi kengashida, Turkiston va Buxoro respublikalari bilan bir qatorda Xorazm respublikasida ham milliy chegaralash o'tkazish vaqti kelib yetgan va u maqsadga muvofiqdir deb e'tirof etilgan edi.

Ammo 1924-yil iyun oyida Xorazm Kompartiyasi Markaziy Komitetining Ijroiya Byurosi Xorazm millatlarining istaklariga qarama-qarshi bo'lgan butunlay xato qaror qabul qildi. Bu qaror milliy-davlat chegaralashi o'tkazilishiga qarshi edi. Xorazm Kommunistik Partiyasi Markaziy Komiteti Ijroiya Byurosi Xorazm respublikasini saqlab qolishni yoqlab chiqdi va hatto Turkiston respublikasining Amudaryo viloyatini Xorazmga qo'shishni talab qildi.

Xorazmning dushman guruhleri milliy chegaralashni barbod qilishga, Xorazmdagi o'zbek, turkman va qoraqalpoqlarni sovet milliy davlatlarga qayta birlashtirmaslikka urinib ko'rdilar. Bu, o'zbek shovinizmining chiqishlaridan biri edi.

Boylar va mullalar yolg'on-yashiq ig'volar tarqatdilar, «xalqlarning diniy xususiyatiga ko'ra qo'shilishi» uchun Amudaryo viloyati Xorazmga birlashtirilishi kerak degan gap-so'zlar tarqatdilar .

Mana shularga ko'ra Xorazmni milliy-davlat chegaralash ishiga jalb qilish kechikib ketdi. Ammo Xorazmdagi yangi milliy sovet respublikalari barpo

etilishiga to'sqinlik qilgan burjua millatchi guruhlar fosh etildi. Xorazm Kompartiyasi Komitetining Ijroiya Byurosi o'zining sobiq qarorini bekor qildi, milliy-davlat chegaralash o'tkazish zarur ekaniga iqrор bo'ldi. RKP (b) Markaziy Komiteti O'rta Osiyo byurosi Xorazm Kompartiyasi Markaziy Komitetining taklifini qo'llab-quvvatldi va bu masalani muhokama qilishni RKP (b) Markaziy Komiteti oldiga. qo'ydi

Boylar, manoplar va ularning malaylari — burjua millatchilari va ruhoniylar — yangi respublikalar va viloyatlarning chegaralarini belgilash davrida O'rta Osiyo millatlari o'rtasida nizo chiqarishga qayta-qayta urinib ko'rdilar. Ular mehnatkashlar ommasini asosiy masaladan chalg'itish uchun biror volost yoki qishloqning u yoki bu respublikaga qo'shilishiga oid munozaralarni qasddan boshlardilar. Ular ma'lum bir qishloq yoki rayonning aholisi nomidan turli territorial talablardan iborat qalbaki hujjatlar tayyorlardil.

Boy va eshonlar Chimboy uyezdida milliy chegaralashga qarshi chiqib, yashirin kengash chaqirdilar. Bu kengashda ular go'yo aholi nomidan qalbaki arznoma yozdilar. Bu vaqtda batrak o'rta hol omma, dushmanlarning hiylanayranglariga qaramay, Kommunistik partiyaning qarorlargini amalga oshirishni qo'llab-quvvatladilar.<sup>1</sup>

Asarga ko'ra 1924-yil fevral oyidan boshlab, milliy chegaralash o'tkazishga bevosita tayyorgarlik ko'rishning qonuniy jarayoni boshlandi. 1924-yil fevral iyidan boshlab bu masala Turkiston, Buxoro, Xorazm partiya tashkilotlarining majlislarida va plenumlarida dastlab muhokama qilina boshlandi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, milliy- hududiy chegaralanishga kommunistik partiya yetakchilik qildi. Lekin O'rta Osiyoning ko'pgina davlat rahbarlari, xususan rus millatiga mansub partiya arboblari ham bu jarayonga qarshilik ko'rsatishgan. Shunga qaramasdan partiya o'z siyosatini og'ishmay amalga oshirgan. Kommunistik partiyaning olib borgan bunday siyosati asarda quyidagicha bayon etilgan:

---

<sup>1</sup> Турсунов Х. Ўзбекистон Совет Социалистик Республикасининг барпо этилиши. Т. ФАН. 1958. 139-bet

Faktlar milliy chegaralash o'tkazilishi davrida ish hamma joyda silliq bormaganini ko'rsatadi, bunda ko'p qiyinchiliklarga duch kelingan, xatolarga yo'l qo'yilgan. Bu qiyinchilik va xatolar RKP (b) Markaziy Komiteti rahbarligi ostida qadam-baqadam bartaraf qilina bordi.<sup>2</sup>

Biz bunga misol qilib 1924-yil 25-fevralda Buxoro kompartiyasi markaziy komiteti plenumida Buxoro XSRsi Nozirlar Kengashining raisi Fayzulla Xo'jayev tomonidan ishlab chiqilgan va plenumga taqdim etilgan "Buxoro kompartiyasi markaziy komitetining tezislari-O'zbekistonni barpo etish masalasiga oid asosiy nizom"da bir qancha butunlay xato xulosalar borligi ko'rsatib o'tilgan. Xususan ularda tarixiy haqiqatga qarama-qarshi o'laroq bir vaqtlar O'rta Osiyoni bosib olgan bosqinchilar hududlarni qanday bo'lib olgan bo'lsalar, sovet ma'muriyati ham xuddi shunday bo'linishni takrorlab, mustahkamlamoqda deyilgan. 10-martda Buxoro KP Ijroiya Byurosi chegaralashga doir qaror qabul qildi. Unda yuqoridagi fikrlar olib tashlandi.

Buxoro Kompartiyasi Markaziy Komiteti Ijroiya byurosi o'z qarorida mustaqil ikkita ittifoqdosh respublika — Turkmaniston va O'zbekiston Sovet Respublikalari barpo etish zarurligini aniq, yozgan edi. Bu qarorga muvofiq, O'zbekiston maxsus shartnoma bilan «SSSR ga beshinchi a'zo bo'lib qo'shiladi». Turkiston respublikasi esa RSFSR va SSSR ga nisbatan o'z munosabatini mustaqil o'zi belgilashi kerak edi. Shuningdek qarorda Tojikiston Avtonom viloyatini barpo etish ham ko'zda tutilgan edi.<sup>1</sup>

1924-yil davomida bu masala Turkiston, Xorazm va Buxoroda muhokama qilindi va shu yilning oxiriga borib, milliy-hududiy chegaralanish amalga oshirildi.

Bu masalani Turkistonda muhokama qilish jarayonida ham bir qator bahs va munozaralar bo'lgan. Masalan:

Turkistonda milliy chegaralash o'tkazish to'g'risidagi masala Turkiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komiteti va Turkiston Sovetlari Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumining Toshkent shahar partiya va sovet xodimlari ishtirokida

---

<sup>2</sup> Турсунов Х. Ўзбекистон Совет Социалистик Республикасининг барпо этилиши. Т. ФАН. 1958. 139-бет

<sup>1</sup> Турсунов Х. Ўзбекистон Совет Социалистик Республикасининг барпо этилиши. Т. ФАН. 1958. Б. 112.

1924- yil 10-martda bo'lib o'tgan qo'shma kengashida birinchi marta keng muhokama qilindi. Kengash Turkistonda milliy chegaralash o'tkazish masalasini oldindan munozara o'tkazish yo'li bilan muhokama qildi. Bu kengashda kommunistlar milliy chegaralash o'tkazish va O'rta Osiyoda milliy sovet respublikalari barpo etish fikrini bildirdilar. Kengash bu munozaralarning materiallarini Turkiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti plenumiga ko'rib chiqish uchun topshirishga qaror berdi .

Bu kengashda ba'zi qarama-qarshi fikrlar borligi ham ma'lum bo'ldi. Masalan, A. Rahimboev, Turkistonni milliy chegaralash tarafdori bo'lsa ham, Turkistonning qozoq rayonlarini 1920-yildan beri yashab kelayotgan Qirg'iziston (Qozog'iston — H. T.) ASSR ga qo'shilishiga qarshi chiqdi. U o'z fikrini isbot qilish uchun Turkistonning Yettisuv va Sirdaryo viloyatlari qozoqlarini Qozog'iston ASSR bilan qo'shish tufayli, qozoqlarning «territoriyasi juda katta bo'lib ketadi» degan gapni dalil sifatida keltirdi. Bu butunlay xato fikr edi.

Kengashda Xo'janov, Paskutskiy va boshqalar ham milliy chegaralash o'tkazmaslik kerak, aksincha O'rta Osiyoning uchta sovet respublikasini birlashtirish kerak deb, ro'yi rost aytishdi. Paskutskiy o'zining bu xato fikrini “siyosiy va iqtisodiy birlikning zarurligi va maqsadga muvofiqligi”tog'risidagi iboralar bilan xaspo'shlashga urindi. Vaholanki O'rta Osiyoni milliy chegaralash va mustaqil sovet respublikalarini barpo etish o'lka xalqlarining va sovet ittifoqidagi barcha xalqlarning iqtisodiy va siyosiy birligini hamda hamkorligini yanada mustahkamlash kerak edi va mustahkamladi ham. Xo'janov va boshqalar Turkiston yagona va uni ayrim milliy respublikalarga ajratish mumkin emas deb da'vo qildilar. Ular o'zbek, turkman va boshqa millatlarni inkor qildilar va amalda bo'lmagan “umummusulmon turk millatlari”ni saqlashga chaqirishdi.<sup>1</sup>

Shunday qilib, tortishuvli muhokamalardan so'ng O'rta Osiyoda milliy chegaralash amalga oshirildi va O'zbekiston va Turkmaniston SSR hamda O'zbekiston tarkibida Tojikiston Avtonom Sovet Respublikasi tashkil etildi.

---

<sup>1</sup> Турсунов Х. Ўзбекистон Совет Социалистик Республикасининг барпо этилиши. Т: ФАН. 1958. Б.115.

Habib Tursunovning ushbu asari haqida xulosa qilib aytadigan bo`lsak, una milliy chegaralanish o`tkazilishi O`rta Osiyo xalqlari hayotida muhim o`rin tutganligi va bu yerdagi xalqarning sotsialistik millat bo`lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etganligi ko`rsatib o`tilgan.

1969-yilda chop etilgan” O`rta Osiyo kommunistik tashkilotlari tarixi “asarida ham milliy-hududiy chegaralanish masalasiga alohida e`tibor berilgan. Bu asarda keltirilishicha “RKPning X syezdi : Partiyaning milliy masaladagi muhim vazifalaridan biri o`tmishda qoloq bo`lgan xalqlarning o`z yurtlarida sovet davlatchiligini o`zlarining milliy turmush sharoitlariga muvofiq keladigan formalarda rivojlantirish va mustahkamlashlariga , ularning o`z yerlarida aholining turmushini va psixologiyasini biladigan mahalliy kishilardan tuzilgan hamda ona tilida ish yuritadigan sud, ma`muriyat, xo`jalik , hokimiyat organlarini rivojlantirish va mustahkamlashga yordam berishdan iboratdir, deb ko`rsatdi. ”

Asarda ko`rsatilishicha O`rta Osiyoda milliy chegaralanish o`tkazish uchun muayyan shart-sharoitlar talab qilinardi. Turkiston, Xorazm va Buxoro iqtisodiy va madaniy jihatdan qooloq edi, bu qooloqlik chorizmdan va xonlar tuzumidan meros qolgan edi, buning natijasida bu yerdagi xalqlarning millat bo`lib shakllanish jarayoni sekin borayotgan edi, fuqarolar urushi cho`zilib ketganligi uchun qiyinchiliklar paydo bo`lgan edi, shu va boshqa bir qancha sabablarga ko`ra, Sovet hokimiyati g`alaba qilganidan keyingi dastlabki yillardayoq bu yerda ayrim davlatlar tuzish mumkin emas edi.”

Ma`lumki sovet davrining muhim belgilaridan biri bu-shaxsga sig`inish siyosatidir. Shuning uchun ham ” O`rta Osiyo kommunistik tashkilotlari tarixi “ asarida ham O`rta Osiyoda o`tkazilgan milliy-davlat chegaralanishi masalasiga V. I. Leninning alohida e`tibor bilan qaraganini ko`rsatib o`tilgan:

“Lelin O`rta Osiyo sovet respublikalari tuzish masalasi bilan mufassal shug`ullandi. U Turkiston ASSRdagi ahvol to`g`risidagi materiallarni sinchiklab tahlil qilib chiqdi, uni bir qancha respublikaga bo`lish pespektivalarini o`yladi. Lelin 1920-yil 13-iyunda Turkkomissiyaning loyihasini qarab chiqib, unga jiddiy o`zgarishlar kiritdi va “Turkistonning O`zbekiston, Qozog`iston va

Turkmanistonga bo`lingan kartasini (etnografik va hokazo kartasini) tuzib chiqish topshirilishini “hamda “shu uch qismning qo`shilish yoki ajralish sharti mufassalroq tushuntirib berilishini “ taklif qildi. Keyinroq , 1920-yil 22-iyunda , ”RKPning Turkistondagi vazifalari to`g`risida”gi qarorning loyihasiga kiritgan tuzatishlarida Lenin “Respublikaning 3 qismga bo`linishi shoshqaloqlik bilan hal qilinmasin”debt ta`kidlagan edi.

Turkistonda bir necha milliy respublika tashkil qilish yo`li bilan Turkiston o`lkasida sovet miliy davlatchiligini yanada rivojlantirish murakkab va qiyin ish ekanligini tushungan Lenin bu problemaning hamma tomonlarini tegishli materiallarni sinchiklab o`rganib chiqishni maslahat berdi. ”

Ma`lumki milliy –hududiy chegaralanish yuzasidan 1924-1925-yillarda kommunistik partiya tomonidan bir qancha syezdlar o`tkazilgan bo`lib, ularda bu masala yuzasidan bir qator qarorlar qabul qilingan. Ushbu asarda partiya tomonidan o`tkazilgan syezdlarning har biri batafsil bayon etilgan.

1924-yil 31-yanvarda RKP(B)MK tashkilot byurosining majlisida O`rta Osiyoni milliy chegaralash masalasi muhokama qilindi va Y. E. Rudzutakka u Turkistonda bo`lgan vaqtida shu masani har tomonlama o`rganib chiqishni topshirdi.<sup>1</sup>

Ma`lumki, milliy –hududiy chegaralanish davrida undan norozi bo`lgan, yoki O`rta Osiyoning bo`lib yuborilishiga qarshi bo`lgan shaxslar ham bo`lgan. Masalan, ushbu asarga ko`ra:

Ba`zi bir mahalliy partiya va sovet hodimlari Turkistonni chegaralashning ochiqdan-ochiq noto`g`ri loyihalarini ilgari surdilar. Masalan, Turkiston ASSR sovetlarinig XII syezdida Farg`ona oblastidan vakil bo`lib kegan bir gruppada delegatlar RKPMK, O`rta Osiyo Byurosi va Turkiston Kompartiyasi MK nomiga yozgan xatida Farg`onani bevosita RSFSRga bo`ysunadigan avtonom oblast qilib ajratishni taklif qildi. Bu taklif tanqid qilishga ham arzimasi edi. Chunki Farg`ona o`zbeklar , qirg`izlar, tojiklar va boshqalar yashaydigan ko`p millatli oblast edi. O`zbeklar qo`qon uyezdidagi (uyezddagi barcha aholining 78, 5 foizdan ko`prog`i)

---

<sup>1</sup>Ўрта Осиё коммунистик ташкилотлари тарихи. Т:Ўзбекистон, 1969.Б.769.



va Farg`ona uyezdida (aholining 75 foizi), shuningdek Andijon (65, 5 foizi) va Namangan (62, 5 foizi) uyezdlarining ko`pchilik volostlarida g`uj bo`lib yashar edilar. O`sh uyezdida esa o`zbeklar kamchilik (35 foiz) edilar. Umuman Farg`ona Oblastida O`rta Osiyodagi hamma o`zbeklarning 40 foizdan ko`prog`i yashar edi. Qo`qon uyezdining So`x, Isfara, Konibodom volostlarida deyarli bitunlay tojiklar yashar edilar. Ular iqtisod va madaniyat sohasida Samarqand uyezdining qo`shni Xo`jakent va Buxoro Respublikasining sharqidagi tojiklarning asosiy ommasi bilan mahkam bo`glangan edilar. Revolyutsiyadan oldingi davrda parchalanib ketgan bu tojik yerlarini birlashtirishning maqsadga muvofiqligi o`zidan-o`zi ravshan bir narsa edi. Nihoyat, O`sh uyezdidagi va Andijon uyezdining Jalolobod volostidagi aholining ko`pchiligi qirg`izlar edi, ular tabiiyki, shimoliy Q`irg`iziston aholisi bilan qo`shilishni istar edilar.

Shunday qilib “avtonom Farg`ona” tuzish loyihasi bironta ham millatning manfaatlariga javob bermas edi. , binobarin uning qabul qilinishi Farg`ona oblastidagi barcha millatlarning sovet milliy respublikalari sifatida O`rta Osiyodagi boshqa oblastlar bilan birlashish yo`lidagi intilishlariga zid kelar edi.<sup>1</sup>

Xorazm Kompartiyasi MKning milliy chegaralash to`g`risidagi dastlabki taklifi RKP(b)MKda va uning O`rta Osiyo Byurosida qarab chiqilganidan va prinsip jihatidan ma`qullanganidan keyin Xorazm Respublikasining ayrim mas`ul xodimlari kollektiv qarorini buzib, milliy chegaralashga to`satdan qarshi chiqib qoldilar. 1924-yil mayday RKP(b)MK O`rta Osiyo byurosiga Xorazm Kompartiyasining mas`ul sekretari Odinayev, XKP MK Ijroiya byurosining a`zosi Abdusalomov, XSSRning Toshkentdagi bosh elchisi Yoqubov va XSSR Gosplanining raisi Shulimov imzo qo`ygan “Xorazmda milliy masalaning hal qilinishi to`g`risida maktub” berildi. Maktubda bunday deyilgan edi: “Xorazm rayonining iqtisodiy jihatdan yaxlitligi, uning xususiyatlari va Turkiston rayonlaridan farq qilishi, Xorazmning ayrim rayonlarini tuzish mo`ljallanayotgan milliy respublikalar markazlari bilan uzviy bog`lanmaganligi...” Xorazmni o`z chegarasi doirasida mustaqil ma`muriy siyosiy markaz sifatida qoldirishni taqozo

---

<sup>1</sup> Ўрта Осиё коммунистик ташкилотлари тарихи. Т:Ўзбекистон, 1969.Б. 777.

etadi. Maktub avtorlari Turkiston ASSRning Amudaryo oblastini XSSRga qo`shish masalasini qo`ygan edilar. Bu xato pozitsiya shunga olib keldiki, Xorazm birmuncha vaqt mobaynida O`rta Osiyoni milliy chegaralash jarayonidan ortda qoldi. Xorazmning bu rahbar xodimlari keyinchalik o`z pozitsiyalarining xatoligini tushunib, Xorazm Kompartiyasi ijroiya byurosining milliy chegaralash zarurligi to`g`risidagi qarorini to`g`ri deb topdilar.<sup>1</sup>

1924-1925-yillarda RKP(b) MK siyosiy Byurosining O`rta Osiyoni milliy chegaralash to`g`risidagi qarori qabul qilindi va u shu yillar davomida xalq tomonidan muhokama qilindi.

M. I. Kalinin O`rta Osiyoni milliy chegaralash umumxalq xohishi ekanligini aytib, bunday deb yozgan edi:”Milliy chegaralash yuqoridan buyurilgan va kabinetda o`tirib o`ylab chiqarilgan ish emas, balki...Sovet Sharqidagi mehnatkash xalqlarning chinakam orzu umidlarinig ifodasidir”<sup>2</sup>

Milliy chegaralash qattiq sinfiy kurash ostida o`tdi. Boylar, manaplar va ularning malaylari bo`lgan burjua millatchilar va ruhoniylar yangi respublikalar va oblastlar chegaralarini belgilash vaqtida nizo chiqarishga bir necha bor urindilar. Ular biron bir volost yoki qishloqni u yoki bu respublikaga qo`shish bilan bog`liq bo`lgan janjalni jo`rttaga kuchaytirdilar. U yoki bu qishloq yoki rayon aholisi nomidan turli hududlarni talab qilib soxta hujjatlar yasar edilar. Chimboy uyezdida boylar va eshonlar

milliy chegaralashga xalaqit berib, maxfiy kengashlar uyushtirub, bularda go`yo aholi nomidan soxta petitsiyalar tuzdilar. Chimkent uyezdining Sayram volostidagi Qoramurt qishlog`ida ruhoniylar tomonidan chaqirilgan yig`inda eshonlar va ruhoniylar milliy chegaralashga qarshi chiqdilar. Ular ”Agar Sirdaryo viloyatining o`zbek aholisi Qirg`iziston respublikasida qolsa milliy madaniyatning halok bo`lishi muqarrar”, deb da`vo qildilar<sup>3</sup>.

Chegaralash natijasida milliy respublikalar va muxtor viloyatlar tuzildi. Bu sovet milliy respublikalari va muxtor viloyatlari shu hududda g`uj b`olib yashayigan

---

<sup>1</sup> Ўрта Осиё коммунистик ташкилотлари тарихи. Т:Ўзбекистон, 1969.Б. 784

<sup>2</sup>Ўрта Осиё коммунистик ташкилотлари тарихи. Т:Ўзбекистон, 1969.Б. 794.

<sup>3</sup> Ўрта Осиё коммунистик ташкилотлари тарихи. Т:Ўзбекистон, 1969.Б.795.

millatlar(O`zbekiston SSRda o`zbeklar, Turkmaniston SSRda turkmanlar, Tojikiston ASSRda tojiklar, Qirg`iziston muxtor viloyatida qirg`izlar, Qoraqalpog`iston muxtor viloyatida qoraqalpoqlar) nomi bilan ataldi. Shu bilan birga faqat bir millatdan iborat respublikalar tuzish masalasi qo`yilgani yo`q. O`rta Osiyo sovet milliy respubliklarida o`z respublikalariga nom bergan millatlar bilan bir qatorda boshqa qardosh millatlar ham ko`plab kirdilar. Masalan, Turkiston respublikasining asosan o`zbeklar yashaydigan lekin qozoq rayonlari orasida joylashgan hamda iqtisodiy jihatdan ular bilan mahkam bog`langan ba`zi bir volostlari milliy-davlat chegaralashi vaqtida Qozog`iston ASSR tarkibiga kiritildi. Bu rayonlarni O`zbekistonga qo`shish amaliy jihatdan mumkin emas edi, buning ustiga Qozog`iston sovet respublikasining iqtisodiy va hududiy yaxlitligining buzilishiga olib kelgan bo`lur edi. Xuddi ana shu sabablarga ko`ra aholisining ko`pchiligini tojiklar yoki qozoqlar tashkil etgan rayonlar O`zbekiston SSR tarkibiga kirdi.

Tojikiston kichik komissiyasining Tojikiston ASSRni tuzish to`g`risidagi RKP(b) Markaziy Komiteti O`rta Osiyo byurosi tomonidan tasdiqlangan loyihasida Buxoro va Samarqand shaharlarining hamda ular atrofidagi aholining anchagina qismini tashkil etadigan tojiklar O`zbekiston SSR tarkibiga kiradi, chunki bu shaharlar “o`zbek aholisi bilan iqtisodiy va savdo manfaatlari hamda suvdan foydalanish tufayli mahkam bo`g`langan o`zbek rayonlarining markazidir”deb, ko`rsatilgan edi. Loyihada Samarqand, Buxoro va qisman Farg`ona vodiysi tojiklarining O`zbekiston SSR hududida yashashi hech qanday janjalga sabab bo`lmaydi, chunki tojiklar bilan o`zbeklar orasida milliy adovat yo`q deb, ta`kidlangan edi.<sup>1</sup>

Milliy chegaralashni muvaffaqiyatli tugallash bilan O`rta Osiyo xalqlarining sovet milliy davlatini yanada rivojlantirish sari katta qadamlar qo`yildi. Milliy chegaralash o`zbek, tojik, qozoq, qirg`iz, turkmanlar va qoraqalpoqlarning inqilobdan oldingi davrda parchalab yuborilgan yerlarini yagona milliy sovet sotsialistik davlatlar qilib birlashtirishni bildirar edi.

---

<sup>1</sup> Ўрта Осиё коммунистик ташкилотлари тарихи. Т:Ўзбекистон, 1969.Б.798.

Turkiston, Buxoro va Xorazmning milliy chegaralanishi-O`rta Osiyo va Qozog`iston xalqlarining taqdiri uchun tarixiy ahamiyatga ega bo`lib, lenincha milliy siyosat tantana qilganligini yaqqol ko`rsatadi. Milliy adovatning tugatilishi, xalqlar o`rtasida qardoshlarcha munosabat o`rnatilishi xalq ommasini internatsionalizm asosida jipslashtirish va tarbiyalashda g`oyat katta rol o`ynadi. Milliy chegaralanishni hayotning o`zi taqozo qildi va xalq ommasining o`z istagi bilan amalga oshirildi. Partiya bu murakkab va jiddiy masalaga g`oyat katta e`tibor berdi.

Chegaralashni amalga oshirish jarayonida partiya barcha millatlarning orzularini, turmush, iqtisod va ijtimoiy sharoitlarining xilma-xilligini hisobga oldi. , munozarali masalarni hal qilishning maqsadga eng muvofiq yo`llarini ko`rsatib berdi. Ayni zamonda partiya milliy adovat o`tini yoqishga, milliy chegaralashni o`tkazishga xalaqit bermoqchi bo`lgan millatchi unsurlarga qat`iy zarba berdi, asossiz hududiy da`volarga chek qo`ydi.<sup>1</sup>

Ushbu asar haqida xulosa qilib aytadigan bo`lsak, hali sovet rejimi mustahkam bo`lgan 60-70-yillarda O`rta Osiyoda o`tkazilgan milliy hududiy chegaralanish masalasiga faqatgina ijobiy yondashilganligini, unga asosan Lenincha milliy siyosat nuqtai nazaridan qaralganini tushunishimiz mumkin.

1971-yilda nashr etilgan "O`zbekiston SSR Tarixi"ning III tomi 1917-1937-yillarni o`z

ichiga olib, uning V bobi O`rta Osiyoning milliy chegaralanishiga va O`zbekiston SSRning tashkil topishiga bag`ishlangan. Ushbu asarga ko`ra:

O`rtaOsiyoning milliy chegaralanishi natijasida SSR Ittifoqi respublikalarining qardosh oilasida tenglar orasida teng bo`lgan O`zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining tashkil topishi o`zbek xalqi tarixida eng muhim bosqichlardan biri bo`ldi.

Turkiston, Buxoro va Xorazm Sovet respublikalari aholisining sostaviga ko`ra ko`p millatli respublikalar edi. O`rta Osiyoda yashab turgan jami o`zbeklardan 66,

---

<sup>1</sup> Ўрта Осиё коммунистик ташкилотлари тарихи. Т:Ўзбекистон, 1969.Б.808.

5 foizi Turkiston ASSRda 22, 2 foizi Buxoro va 11, 3 foizi Xorazm respublikalarida yashar edi. O`zbeklar TASSR aholisining 51, 4 foizini, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi aholisining 50, 1 foizini va Xorazm Xalq Sovet Respublikasi aholisining 61, 1 foizini tashkil etar edi. O`rta Osiyodagi jami turkmanlardan 42, 2 foizi Turkistonda, 27 foizi Buxoro va 29, 8 foizi Xorazmda yashardi; O`rta Osiyo tojiklaridan 47, 7 foizi Turkiston va, 52, 3 foizi Buxoroda yashar edi va hokazo.

O`zbeklar Turkiston ASSRda asosan Farg`ona va Samarqand viloyatlarida, Sirdaryo viloyatining Toshkent va Mirzacho`l uyezdlarida joylashgan edi. Ularning ayrim gruppalari Sirdaryo viloyati Chimkent va Turkiston uezdlarining ba`zi bir rayonlarida yashardi; Buxoro respublikasida ular asosan Boysun, G`uzor, Qarshi, Karmana, Nurota, Shahrisabz, Sherobod va Sariosiyo viloyatlarida (viloyatlarida), Xorazm respublikalarining Urganch va Xiva rayonlarida yashardi.

Turkmanlar TASSRning Zakaspiy viloyatida, Buxoro Xalq Sovet Respublikasining janubiy-g`arbiy (Chorjo`y viloyati) da va Xorazm Xalq Sovet Respublikasining janubiy va janubiy-g`arbiy qismlari (Toshhovuz viloyati) da istiqomat qilar edilar.

Tojiklarning ko`pchiligi Sharqiy Buxoroda to`plangan edi. Ular Samarqand viloyati Xo`jand uyezdi aholisining ham ko`pchiligini tashkil etardi. Tojiklar o`sha viloyatning Samarqand uyezdidagi ba`zi bir rayonlarda hamda TASSR Farg`ona viloyatining bir qator rayonlarida (Pomir, Konibodom, Isfara va hokazo) yashardilar.

Qirg`izlar Yettisuv viloyatining Qorako`l (Prjevalsk), Pishpak, Norin uyezdlari territoriyasiga, Sirdaryo viloyatining Avliyota uyezdining bir qismiga va TASSR Farg`ona viloyatining ba`zi bir rayonlariga (O`sh uyezdi, Andijon uyezdining Jalolobod volosti va hokazo) joylashgan edilar. Qoraqalpoqlar TASSRning Amudaryo viloyatida va Xorazm Xalq Sovet Respublikasining shimoli-sharqiy rayonlarida (Qozoq-Qoraqalpoq viloyatida) yashardilar. Qoraqalpoqlarning ayrim guruhlari parokanda holda Farg`ona viloyatining ba`zi bir rayonlarida ham yashardi.

Qozoqlarning ko'pgina qismi TASSRning shimoliy qismini: Yettisuv viloyatining Olmaota, Jarkent, Lepsinsk, Toldiqo'rg'on uyezdlarini hamda Sirdaryo viloyatining Oqmachit, Avliyota, Kazalinsk, Turkiston va Chimkent uyezdlarini ishg'ol qilgan edi. Shuningdek, qozoqlar Toshkent va Mirzacho'l uyezdleri rayonlarida ham istiqomat qilar edilar.

Turkiston, Buxoro va Xorazmda sovet tuzumi o'rnatilgandan so'ng revolyutsiyadan ilgari tarqoq bo'lgan O'rta Osiyo territoriyasini hamda xalqlarni tegishli milliy respublikalarga birlashtirish masalasi ko'ndalang qilib qo'yilgandi.

O'zbek, turkman, qozoq, qirg'iz, tojik va qoraqalpoq xalqlarining sotsialistik millat bo'lib shakllanishi jadallasha borgan sari milliy sovet davlat tashkilotlarini barpo etish masalasi zarur bo'lib qoldi. Jumladan, qozoqlar vakillarining syezdlari va kengashlarida Turkiston va Qozog'iston ASSR qozoq rayonlarini birlashtirish zarurligi to'g'risidagi masala ko'rila boshladi. Turkistonning qirg'iz rayonlari vakillarining kengashlarida avtonom Qirg'iz viloyatini tashkil qilish to'g'risidagi talab ilgari surildi. Buxoro va Turkistonning tojik rayonlaridagi bir qator kengashlarda kengash ishtirokchilari mazkur rayonlarni bitta davlat tashkilotiga birlashtirishni yoqlab o'z fikrlarini bildirdilar. Turkmanlarning o'z milliy davlatiga ega bo'lishga intilishi, jumladan, Turkiston, Buxoro va Xorazmda Turkman avtonom viloyatlarining tashkil etilishida o'z ifodasini topdi. Biroq ularni yagona bir respublikaga birlashtirish to'g'risidagi masala hali hal bo'lmagan edi. Turkiston, Buxoro va Xorazmdagi o'zbek aholi vakillarining syezdlari va kengashlarida ham yagona o'zbek respublikasini barpo etish to'g'risidagi masala ilgari surildi.<sup>1</sup>

Asarga ko'ra O'rta Osiyoni milliy chegaralash zarurati quyidagicha ifodalangan:

O'rta Osiyoning milliy chegaralanishini o'tkazish zarurati va qonuniyligi quyidagi asosiy sabablardan kelib chiqqan edi.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон СССР тарихи.3-том. Т.: Фан, 1971. Б.395.

Eng avvalo «Rossiya xalqlari huquqlarining deklaratsiyasi»da (1917-yil 2-noyabr) e`lon qilingan o`zbek, tojik, turkman, qoraqalpoq, qirg'iz, qozoq millatlarining to milliy davlat tashkil etishga qadar o`z taqdirini o`zi belgilash huquqlarini amalga oshirishni tugallash zarur edi. Bu huquqlar Ulug' Oktabrning g'alabasidan so`ng amalga oshirila boshladi. Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalarini hamda ularning sostavida bir qator viloyat va avtonomiyalarini tashkil etish bu sohada qo'yilgan yirik qadam bo'ldi. Lekin bu hali yetarli emas edi. Navbatdagi bosqichga — xalqlarning istaklari va sotsializm qurilishi manfaatlariga muvofiq O`rta Osiyoning sovet milliy respublikalarini va avtonom viloyatlarini tashkil etishga o`tish lozim edi.

Sovetlarni O`rta Osiyo xalq ommasiga yanada yaqinlashtirish, mehnatkashlar ommasining davlatni idora qilishdagi ishtirokini aktivlashtirish hamda sovet davlat tuzumini mustahkamlash zarur edi.

O`rta Osiyo xalqlari do'stligini mustahkamlash katta ahamiyatga ega edi. Chor hukumati belgilab qo'ygan eski ma`muriy chegaralar milliy nizolarning chiqishiga

sabab bo'ldi. O`rta Osiyoda sovet milliy respublikalarini tashkil etishni revolyutsiyadan oldingi o'tmishdan meros bo'lib qolgan milliy ziddiyatlar sarqitlarini, buyuk davlatchilik shovinizmi va mahalliy millatchilikni batamom bartaraf etish zarurati taqozo qilar ediki, bu mamlakatimizning va shu jumladan, O`rta Osiyoning barcha xalqlari orzu-umidlariga to`la-to`kis javob berar edi.

Nihoyat, — va bunisi g'oyat muhimdir, — sovet milliy respublikalarining tashkil etilishi O`rta Osiyo xalqlarining moddiy va ma`naviy kuchlarining yanada gullab-yashnashiga, ularning amaldagi tengligiga erishishga hamda sotsialistik qurilishning jadallashuviga: o`zbek, tojik, turkman, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq sotsialistik millatlarining shakllanishi va ravnaq topishiga yurdam berishi lozim edi.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон СССР тарихи 3-том. Т.: Фан 1971. Б.396.

Ma`lumki O`rta Osiyo ni milliy chegaralashning asosiy tashabbuskorlaridan biri V. I. Lenin bo`lgan. Lelinning ushbu masaladagi qarashlari asarda quyidagicha ifodalangan:

O`zbekiston sovet respublikasini va O`rta Osiyoning boshqa sovet respublikalarini barpo etishda V. I. Lenin g`oyat katta rol o`ynadi. V. I. Lenin 1920- yil 13-iyunda Turkkomissiya loyihasini ko`rib chiqib, unga bir qator jiddiy tuzatishlar kiritdi. U quyidagilarni zarur deb topdi:

1) Turkistonning O`zbekiston, Qirg`iziston va Turkmanistonga bo`lingan (etnografik va hokazo) xaritasini tuzish topshirilsin;

2) bu 3 qismni qo`shib yuborish yoki ajratish shartlari batafsilroq aniqlab chiqilsin».

Turkiston o`lkasida sovet milliy davlatini yanada rivojlantirishning butun ahamiyatini hech kim V. I. Leninchalik to`la tushunmas edi. Ayni bir vaqtda V. I. Lenin bu qadar muhim tarixiy ishni amalga oshirishning murakkabligini hisobga olib, o`lkani respublikalarga bo`lishga shoshilmaslikni va ushbu masalani oldindan hal qilib qo`ymasdan, tegishli materiallarni puxta tayyorlashni maslahat beradi.

V.I. Lenin keyinchalik, 1920-yilning 22-iyunida. «RKP(b) ning Turkistondagi vazifalari to`g`risida» degan qaror loyihasiga tuzatishlar kiritish vaqtida yana bir mar ta «. . . respublikani 3 qismga bo`lish oldindan hal qilinmasin» deb ta`kidlab o`tadi.<sup>1</sup>

Ma`lumki , O`rta Osiyoni milliy-hududiy chegaralashni 20-yillarning boshlaridayoq amalga oshirish mo`ljallangan edi. Biroq o`lkadagi milliy-ozodlik harakatlari, chet el intervensiyasi va fuqarolar urushining oqibatida xalqning ahvoli og`irlashib ketgan edi.

1924-yilga kelib O`rta Osiyoda sovet milliy respublikalarini tashkil etishga yordam beruvchi qulay obyektiv sharoitlar yuzaga keldi; yangi iqtisodiy siyosat negizida xalq xo`jaligini tiklashda, ishchilar bilan dehqonlar ittifoqini kuchaytirish hamda Sovet hokimiyatini mustahkamlashda kattagina yutuqlarga erishildi; bosmachi

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон СССР тарихи 3-том. Т.: Фан 1971.Б. 396.



galalarining va xilma-xil kontrrevolyutsion gruppalarining qoldiqlariga qarshi kurash tugallandi; partiya, sovet va xo'jalik xodimlari hamda yangi milliy intelligensiya kadrlari o'sib yetishdi.<sup>1</sup>

Bolsheviklar hukumati O`rta Osiyoni milliy chegaralashni amalga oshirishga kirishmoqchi bo`lgan vaqtda ko`pchilik mahalliy kadrlar ularning bu siyosatiga qarshi chiqqan edilar. Shuning uchun ham ular bu masalada boshqacha yo`l tutishga majbur bo`ldilar.

1924-yil boshida O`rta Osiyoning yangi sovet milliy respublikalarini tashkil etish vazifasini o`rtaga qo'yildi. 1924-yil 31-yanvarda **O`rta Osiyoni** milliy chegaralash to`g`risidagi masala RKP (b) Markaziy Komitetining Tashkilo byurosida muhokama qilindi. Byuroda Ya. E. Rudzutakka bu masalani sinchiklab o`rganib chiqish topshirildi.<sup>2</sup>

Yan Ernestovich Ruzutak asli kelib chiqishi Latviyalik bo`lib, u O`rta Osiyoning ichki siyosiy, madaniy, etnik ahvolidan yaxshi xabardor emas edi.

O`rta Osiyo kommunistik tashkilotlari delegatsiyalarining Moskvaga RKP (b) XIII syezdiga kelishi RKP (b) Markaziy Komiteti Siyosiy byurosida milliy chegaralanish masalasi mufassal ko`rib chiqilayotgan paytga to`g`ri kelgan edi. Ya. E. Rudzutakning taklifiga binoan O`rta Osiyo respublikalarini milliy chegaralash to`g`risida Markaziy Komitet Siyosiy byurosining qarori loyihasini ishlab chiqish uchun RKP (b) Markaziy Komiteti O`rta Osiyo byurosining Komissiyasi tashkil etildi.<sup>3</sup>

1924-1925-yillarda RKP MQ Siyosiy Byurosi, O`rta Osiyo Byurosi, Turkiston ASSR MIK, Xorazm XSR MIK, Buxoro XSRning MIKlarining bo`lib o`tgan bir qancha yig`inlarida O`rta Osiyoni milliy chegaralash muhokama qilindi. Masalan:

1924-yil 12-iyunda RKP (b) Markaziy Komitetining Siyosiy Byurosi «O`rta Osiyo respublikalarini (Turkiston, Buxoro va Xorazm) milliy chegaralash to`g`risida»gi masalani ko`rib chiqib, «Buxoro va Turkiston Markaziy

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон СССР тарихи 3-том. Т.: Фан 1971. Б. 397.

<sup>2</sup> Ўзбекистон СССР тарихи 3-том. Т.: Фан 1971. Б. 395.

<sup>3</sup> Ўзбекистон СССР тарихи 3-том. Т.: Фан 1971. Б.410.

Komitelari va Xalq Komissarlari Sovetlarining takliflari»ni qabul qildi Bu takliflarda quyidagilar ko'zda tutilgan edi:

a) Turkiston, Buxoro va Xorazmning turkmanlar yashaydigan qismlaridan mustaqil Turkmaniston respublikasini tashkil etish.

b) Turkiston va Buxoroning o'zbeklar yashaydigan qismlaridan mustaqil O'zbekiston respublikasini tashkil etish;

v) Turkmanlarni ajratib olib, Xorazm respublikasini mavjud holda qoldirish.

RKP (b) Markaziy Komitetining Siyosiy Byurosi, shuningdek, Turkistonning qozoq rayonlarini Qozog'iston ASSRga birlashtirishni hamda bevosita RSFSR sostaviga kiruvchi Qirg'iziston avtonom viloyatini va O'zbekiston SSR sostavida tojik avtonom viloyatini tuzishni zarur deb topdi.

So'ngra O'zbekiston va Turkmaniston respublikalarining SSR Ittifoqi sostaviga kirishi, milliy chegaralanish munosabati bilan Turkiston va Buxoro Kommunistik partiyalarini (RKP (b) Markaziy Komitetining O'rta Osiyo Byurosini va O'rta Osiyo EKOSOni saqlab qolgan holda) qayta tashkil qilish kabi boshqa masalalar ko'rib chiqildi.<sup>1</sup>

Yuqorida "O'rta Osiyo Kommunistik tashkilotlari tarixi" asarida Xorazm Xalq Sovet Respublikasining bir qancha vakillarini milliy-hududiy chegaralanishga qarshi chiqqanligini ko'rsatib o'tgan edik.

"O'zbekiston SSR tarixi "da esa bu narsa quyidagicha talqin qilingan:

Xorazm respublikasi mas'ul xodimlari bir qismining noto'g'ri xatti-harakati milliy chegaralanish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishda jiddiy qiyinchiliklarni vujudga keltirdi. 1924-yil martida Xorazm partiya sovet xodimlari aktivi kengashida Xorazm respublikasini milliy chegaralash o'z vaqtida va maqsadga muvofiq o'tkazilgan tadbir deb topilgan bo'lsa, keyinchalik ba'zi bir rahbar xodimlarning nuqtai nazari o'zgarib qoldi. Chunonchi, Xorazmdan O'rta Osiyo iqtisodiy konferensiyasiga kelgan delegatsiya a'zolari TKP Markaziy Komitetining sekretari Odinaev, Xorazm Sovet Sotsialistik

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон СССР тарихи 3-том. Т.: Фан 1971. Б. 401.

Respublikasining ichki ishlar noziri, TKP Markaziy Komiteti Ijroiya Byurosining aʼzosi Abdusalomov, XSSRning Toshkentdagi bosh elchisi Yoqubov va XSSR Gosplanining raisi Shulimov 1924-yil 8-mayda RKP (b) Markaziy Komitetiga «Xorazmda milliy masalani hal qilish toʻgʻrisida maktub» yoʻlladilar. Xalqning irodasiga va XQP Markaziy Komiteti Ijroiya Byurosining qaroriga zid ravishda ular milliy chegaralanishga qarshi chiqdilar.

Maktubda, olis Xorazm respublikasi iqtisodiy jihatdan mustaqildir va shu sababli oʻzbek, turkman, qoraraqalpoq qismlari boʻlgan holda ularni tegishli milliy respublikalarga birlashtirish maqsadga muvofiq emas, deb daʼvo qilindi va hatto Turkistonning Amudaryo viloyatini Xorazmga qoʻshish toʻgʻrisidagi masala Oʻrtaga qoʻyildi. Masalani bunday hal qilish butun Oʻrta Osiyoning oʻzbek, turkman, qoraraqalpoq yerlarini yangi sovet milliy respublikalariga birlashtirish toʻgʻrisidagi Xorazm xalqlarining irodasiga qarama-qarshi edi. Yuqorida koʻrsatib oʻtilgan xodimlarning talabiga binoan XKP Markaziy Komitetining Ijroiya Byurosi ham notoʻgʻri qaror qabul qildiki, bu qaror milliy chegaralanishga qarshi qaratilgan edi. Bu haqda RKP (b) Markaziy Komiteti nomiga telegraf orqali xabar qilingan edi. Buning oqibatida Xorazm respublikasi vaqtincha milliy chegaralanishdan tashqarida qoldi.

Xorazm respublikasining suveren huquqlariga rioya qilib va XKP Markaziy Komitetining Ijroiya Byurosi tutgan pozitsiyani hisobga olib, RKP (b) Markaziy Komitetining Siyosiy Byurosi Xorazmni milliy chegaralash toʻgʻrisidagi masalani muhokama qilmaslikka qaror qildi. Bu fakt milliy chegaralanishning chuqur ixtiyoriy xarakterda ekanligi, Oʻrta Osiyo respublikalariga hech qanday tazyiq koʻrsatilmaganligini, RKP (b) Markaziy Komiteti milliy respublikalar va milliy Kompartiyalarning hamma takliflariga zoʻr eʼtibor berib yondashganligini yaqqol koʻrsatib turibdi. Bu bilan chet el burjua tarix soxtalovchilarining uydirma gaplari rad etildiki, ular hozirgi kunga qadar, milliy chegaralanish Oʻrta Osiyo xalqlarining irodasiga zid oʻlaroq amalga oshirilgan, deb daʼvo qilib kelmoqdalar.

1924-yil 26-iyulda XKP Markaziy Komitetining Ijroiya byurosi o'zining ilgari noto'g'ri qarorini bekor qilib, milliy chegaralanish o'tkazishni zarur, deb e'tirof etdi hamda O'rta Osiyo Byurosidan XKP Markaziy Komitetining «RKP (b) Markaziy Komiteti qarorining Xorazmni ilgari holida qoldirishga oid qismini qayta ko'rib chiqish zarurligi to'g'risida»gi taklifini RKP(b) Markaziy Komitetiga ma'lum qilishni so'radi.

RQP(b) Markaziy Komitetining O'rta Osiyo Byurosi XKP Markaziy Komitetining iltimosini quvvatladi va bu masalani RKP (b) Markaziy Komiteti muhokamasiga qo'ydi. RKP (b) Markaziy Komiteti ushbu iltimosni qondirishga qaror qildi. Shunday qilib, Xorazmda ham milliy chegaralanish o'tkazildi. RKP (b) Markaziy Komiteti Siyosiy Byurosiniig «O'rta Osiyo respublikalarini milliy chegaralash to'g'risida»gi qarorini o'lkaning hamma xalqlari zo'r mamnuniyat bilan qarshi oldilar.<sup>1</sup>

Shunday qilib, bo'lib o'tgan muhokamalardan keyin O'rta Osiyoda miliy respublikalar tuzila boshlandi.

1924-yil 5-dekabrda O'zbekiston SSR Revolyutsion Komiteti O'zbekistonning barcha mehnatkashlariga qarata xitobnoma e'lon qildi hamda O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tashkil etilganligini bildirdi. Xitobnomada: o'zbek xalqi mehnatkashlar ommasining irodasi bajo keltirildi. O'zbek xalqi Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzib o'z taqdirini o'zi belgiladi, deb ko'rsatilgan edi.

Revolutsion Komitet «Ulug' SSR Ittifoqiga qizg'in salom» yo'lladi.

Milliy chegaralanish natijasida O'zbekiston SSR sostaviga quyidagi territoriyalar kirdi:

a)Sobiq Turkiston respublikasidan Samarqand oblastining Jizzax, Kattaqo'rg'on va Xo'jand uyezdlarining 41 volosti;Sirdaryo oblasti Toshkent va Mirzacho'l uyezdlarining 24 volosti;Farg'ona oblasti Andijon, Qo'qon, Namangan, Farg'ona uyezdlarining 70 volosti va 7 qishloq okrugi (Shohimardon, Vodil va boshqalar);

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон СССР тарихи 3-том. Т.: Фан 1971.Б. 403.

b)Sobiq Buxoro Sovet Sotsialistik respublikasidan Boysun, Buxoro, G`uzor, Qarshi, Karmana, Nurota, Shahrisabz, Sherobod va qisman Sirdaryo viloyatlari;

v)Sobiq Xorazm sovet sotsialistik Respublikasidan 23 rayon, keyinchalik bular Gurlan, Yangi Urganch va Xorazm uyezdlarini tashkil etdilar.

1929-yilga qadar O`zbekiston SSR tarkibida bo`lgan Tojikiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi Turkiston va Buxoroning bir qator rayonlaridan tashkil etilgan edi. Unga quyidagilar kirdi:

Sobiq Turkiston ASSRdan Samarqand oblasti Samarqand va Xo`jand uyezdlarining 12 volosti va Farg`ona oblastining Pomir rayoni;

b)Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasidan Sharqiy Buxoro deb atalgan deyarli butun territoriya Garm, Hisor, Ko`lob, Qo`rg`ontepa, Dushanba va qisman Sirdaryo volostlari bilan birgalikda.

Qoraqalpoq avtonom viloyati Turkistonning Amudaryo viloyatidan va Xorazmning 3 ta sho`ro (rayoni)sidan tashkil topgan edi. Ma`muriy jihatdan viloyat to`rt okrugga: To`rtko`l, Chimboy, Xo`jayli. va Qo`ng`irot okruglariga bo`lingan.

O`zbekiston SSR territoriyasi respublika tashkil etilgan dastlabki yillarda 312 394 kv.km. dan iborat edi, shu jumladan, Tojikiston ASSRning territoriyasi (Xo`jand okrugidan tashqari) 135 620 kv.km. edi. Shu paytga kelib O`zbekiston SSR aholisi (Tojikistondan tashqari) 3 million 963 ming 285 kishi yoki O`rta Osiyo butun aholisining qariyb yarmidan iborat edi. 1926-yilgi Butunittifoq aholini ro`yxatga olishda aniqlangan ma`lumotlarga ko`ra, O`zbekistonda (Tojikiston ASSRdan tashqari) 4 million 447 ming 555 kishi yashar ekan.

Xuddi shu ma`lumotlarga ko`ra, O`zbekiston SSRning (Tojikiston ASSRdan tashqari) milliy sostavi quyidagi ma`lumotlar bilan harakterlanadi: o`zbeklar — 74, 2, tojik-lar (1926 yil tevaragida) —7,8, ruslar — 5,6-, qozoqlar — 2,4, qirg`izlar — 2,4 foiz va hokazo.<sup>1</sup>

Ushbu asarda milliy-hududiy chegaralanishning yoritilishi haqida xulosa qilib aytadigan bo`lsak, sovet davridagi boshqa turli tarixiy adabiyotlardagi kabi bu

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон СССР тарихи 3-том. Т.: Фан 1971. 413-бет

masalaga ijobiy baho berilgan va milliy chegaralanish o`tkazilishi O`rta Osiyo xalqlarining hayotida muhim ahamiyat kasb etishi ko`rsatilgan.

Shunday qilib, O`rtaOsiyoning milliy chegaralanishi yirik tarixiy tadbir bo`ldiki, bu tadbir natijasida O`rta Osiyo Xalqlarining sovet milliy davlati tag`in ham rivojlandi, ilgari parokanda bo`lgan o`zbek, tojik, turkman, qozoq, qirg`iz va qoraqalpoq yerlari yagona sovet sotsialistik milliy respublikalariga va avtonom viloyat lariga birlashdi.

Milliy chegaralanishni muvaffaqiyatli o`tkazish, yangi O`rta Osiyo respublikalarini barpo etish va ularning ixtiyoriy ravishda SSR Ittifoqi sostaviga kirishi Kommunistik partiya lenincha milliy siyosatining tantana qilganligidan dalolat beradi.

O`zbekiston SSRning tashkil topishi xalq ijodiy kuchlarining yanada ko`proq namoyon bo`lishi uchun sharoit yaratdi, mehnatkashlarning sinfiy ongini oshirdi.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон СССР тарихи 3-том. Т.: Фан, 1971. Б. 428.

## **II bob. Mustaqillik davri tarixshunosligida milliy davlat chegaralanishi masalasining yoritishi**

### **2.1. O`zbekiston tarixchilari asarlarida milliy davlat chegaralanishi masalalari**

Mustaqillikka erishganimizdan keyin tarixni haqqoniy yoritishga alohida e`tibor berila boshlandi. Mustaqillikni qo`lga kiritishimiz bilan tarixiy haqiqatni tiklash uchun yangicha va xolis yondashuv , sovet davrida yuzaga kelgan Vatanimiz tarixiga sinfiy yondashuvni tugatish uchun qulay shart-sharoit yuzaga keldi. Sovet davri tarixini sinfiylik mafkurasidan xoli holda, haqqoniy ravishda o`rganish maqsadida Vazirlar Mahkamasi 1996-yil dekabrda “O`zbekistonning Yangi tarixini yaratish to`g`risida” va 1998-yil iyulda “O`zbekiston Respublikasining fanlar akademiyasi tarix Instituti faoliyatini takomillashtirish to`g`risida”gi qarorlari chiqdi. Bular o`z-o`zidan bu davr tarixini to`g`ri o`rganish biz uchun naqadar zarur ekanligini anglatadi.

Yuqoridagi qarorlarga binoan, 2000-yilda III jildlik “O`zbekistonning Yangi Tarixi”nashr etilgan bo`lib, uning II jildi “ O`zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida “deb ataladi. Unda O`rta Osiyoning milliy-hududiy chegaralanishining amalga oshirilishi ko`rsatib o`tilgan.

O`rta Osiyoning sovetlar tomonidan bosib olinib, Turkiston muxtoriyatining qonga botirilishi milliy-ozodlik harakatlarining avj olishiga sabab bo`ldi. Ayrim adabiyotlarda yozillishicha bu davrda O`rta Osiyoda panturkizm g`oyasi keng tarqalib, bu hududda yashovchi barcha xalqlarni birlashtirishni ko`zda tutgan edi. T. Risqulov boshchiligidagi Turkiston milliy kommunistlarining «Turk Sovet Respublikasi»ni tashkil etish to`g`risidagi taklifini ham shu bilan bog`liq, deb hisoblaganlar.

Aslida, Turor Risqulov va maslakdoshlarining 1920-yildagi chiqishi turkiy xalqlarning birligi g`oyasini ularning so`nggi tayanchi bo`lgan Turkiston mintaqasida ularning o`z davlat tuzumini O`rta Osiyo davlatchiligining tarixan qaror topgan shakllariga, turmush tarziga, ijtimoiy ahvoliga, axloqi, iqtisodiy

va ma`naviy madaniyatiga muvofiq tarzda barpo etish huquqini himoya qilishga zo`r berib urinishdan iborat edi

Markazning yuqori siyosiy rahbariyati uchun Turkistonni bo`lib yuborish, uni yagona davlat tuzilmasi sifatida yo`q qilish g`oyasi ustuvor bo`lib qoldi. U Turkistonni saqlab qolish o`zining imperiyacha maqsadlariga xavf tug`diradi deb xisoblardi, chunki «Turkiston» unda yashovchi barcha xalqlar ongida ularning tarixiy Vatani ramzi sifatida tushunilardi, uning mustaqilligi va ozodligi uchun kurashda doimo birlashtiruvchi ta`sirchan omil bo`lib kelgan edi.<sup>1</sup>

Bolsheviklar O`rta Osiyoni bo`lib yuborishni uni bosib olgan davrdan boshlab amalga oshirishga kirishishgan:

1920-yil sentabrda Sovetlarning IX Umumturkiston s`yezdi TASSR Konstitutsiyasini tasdiqadi, uning loyihasini Turkkommissiya tayyorlagan edi. Konstitutsiyada aytilishicha, «Turkiston unda yashovchi asosiy xalqlarning, ya`ni: turkmanlar, o`zbeklar, va qirg`izlarning muxtor respublikasi deb e`tirof qilinib, asosiy milliy guruhlar, iqtisodiy va maishiy uklad bo`yicha viloyatlarga bo`linadi va RSFSRning Turkiston Avtonom Respublikasi degan nom bilan ataladi». Xullas, Turkiston aholisining bo`linishi, uning etnik nomi bo`yicha ma`muriy-hududiy, tuzilishi Konstitutsiya asosida mustahkamlandi, holbuki, O`rta Osiyolik xalqlar uchun birlashtiruvchi omil u vaqtda diniy va hududiy mansublik edi. Aynan hududiy, madaniy-diniy birlik o`sha vaqtda O`rta Osiyoda yashovchi xalqlar ongida va o`z nomida aks etgan bo`lib, «musulmon», «turkistonlik», «samarkandlik», «farg`onalik», «buxorolik», «xivalik» kabi nomlar bilan atab kelinar edi. Turli davrlarda qaror topgan O`rta Osiyo davlatlari, ularning ichki ma`muriy tuzilishi ham ana shu hududiy, madaniy, diniy umumiylikka asoslangan edi.<sup>2</sup>

Bu davrda O`rta Osiyoda milliy ozodlik harakatlari avj oldi. Bundan tashqari fuqarolar urushi va chet el intervensiyasining oqibatlari hali to`la bartaraf etilmagan va xalqning ahvoli og`ir edi. Faqtgina 1923-yilga kelib vaziyat biroz

---

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида 2-том. Т.: Шарқ, 2000.Б. 284.

<sup>2</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида 2-том. Т.: Шарқ, 2000.Б. 285.



barqarorlashib, milliy ozodlik harakatining asosiy kuchlari bostirilganidan keyin uni amalga oshirish uchun shart-sharoit yuzaga keldi. Tez orada milliy chegaralashni Buxoro va Xorazm respublikalari hududida ham amalga oshirishga kirishildi.

RSFSR tarkibiga kirgan Turkiston Avtonom Respublikasini yangitdan chegaralash haqidagi Bolshheviklar g'oyasi 20-yillarning O'rtalariga kelib, ancha keng miqiyos kasb etgan vazifaga — chegaralanishga faqat Turkiston Respublikasigina emas, balki Buxoro va Xorazm xalq respublikalarining ham tortilishi masalasiga aylanib ketdi. Bu vaqtda Buxoro va Xorazm respublikalari huquqiy jihatdan hali mustaqil suveren davlatlar hisoblanardi. O'rta Osiyoning milliy chegaralash masalasi Moskvada to'liq qo'llab-quvvatlandi. Chunki bu vaqtga kelib Markazning partiya rahbariyatida chegaralash masalasi aniq ifodalangan asosiy maqsadga aylanib qolgan edi.

RKP(b) MQning bevosita ko'rsatmasiga muvofiq Turkiston, Buxoro va Xorazmning rahbar partiya organlari uning ilgari surgan milliy-hududiy chegaralanish g'oyalarini amalga oshirishga tortildi. 1924-yilning fevralidayoq Buxoroga RKP (b) MQ O'rta Osiyo byurosining a'zosi, TKP MQning masul kotibi Abdulla Rahimboev yuborildi, bu erda u BXSRS rahbar xodimlari kengashida milliy-hududiy chegaralanish to'g'risida ma'ruza bilan so'zga chiqdi. Kengash asosan chegaralanish o'tkazishni ma'qulladi.

1924-yil 25-fevralda bu masala Buxoro kompartiyasi MQ Plenumi muhokamasiga qo'yildi. Plenumda Fayzulla Xo'jaev ma'ruza qildi. Plenumda asos sifatida qabul qilingan BKP MKning tezislari BKP MQ komissiyasi tomonidan qarab chiqildi va qayta ishlandi, uning Ijroiya byurosi majlisida 1924-yil 10-martda tasdiqlandi. BKP MQ Ijroiya byurosi O'rta Osiyoning milliy chegaralanishini kompartiya e'lon qilgan millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini hayotga tatbiq etishning muhim bosqichi sifatida talqin etib, tezislarda qayd etilgandek, chegaralanishning sxemasini quyidagicha taklif etdi: O'rta Osiyoda O'zbekiston, Turkmaniston ittifoqdosh Respublikalarini, O'zbekiston Respublikasi tarkibida avtonom Tojikiston viloyatini tuzish, shuningdek,

Turkistonning qozoq tumanlarini Qozog'iston Respublikasiga birlashtirish. Alohida bandda yangi tashkil etilayotgan O'zbekiston Respublikasining «ixtiyoriy asosda» SSSR tarkibiga kirishi aytib o'tildi.<sup>1</sup>

Yuqoridagi manbalarda keltirib o'tganimizdek, Xorazm Xalq Sovet Respublikasining bir qancha vakillari bu masala yuzasidan yagona qaroga kela olmagan edilar, aniqrog'i ular Xorazmni milliy chegaralashga tortilishiga qarshi edilar.

Xorazm Kompartiyasining rahbariyatida milliy chegaralanishga turlicha munosabat paydo bo'lgan edi. 1924-yil 3 martdayoq partiya MQ Ijroiya byurosi majlisida axborot tartibida RKP(b) MK O'rta Osiyo byurosining a'zosi I. Mejlaukning milliy-hududiy chegaralanish to'g'risidagi ma'ruzasi tinglandi. Biroq majlis ma'ruzani ma'lumot uchun qabul qilish to'g'risidagi ko'rsatma bilan cheklandi.

Martning O'rtalarida Xivada bo'lib o'tgan partiya-sovet faollari yig'ilishida bu masala yana qo'yildi. Yig'ilish qabul qilgan qarorda e'tirof qilinishicha, «Xorazm Respublikasi milliy belgi bo'yicha chegaralanadi va tegishli rayonlar O'rta Osiyoning yangi tashkil etilayotgan respublikalariga (O'zbekiston, Turkmaniston va hokazo), bordi-yu, shunday respublikalar ajraladigan bo'lsa, kiradi».

1924-yil 8-maydayoq O'rta Osiyo iqtisodiy konferensiyasida qatnashish uchun Toshkentga kelgan Xorazm delegatsiyasi ahzolari RKP(b) MQ O'rta Osiyo byurosi raisiga «Xorazmda milliy masalaning hal qilinishi to'g'risida maktub» topshirdilar, unda Xorazmni mustaqil ma'muriy rayon sifatida o'zining doirasida qoldirish, shuningdek, Xorazm Respublikasi bilan Turkiston Respublikasining Amudaryo viloyatini birlashtirish taklif kilingan edi. Aslida, bu Xorazmning chegaralanish o'tkazilishini rad qilishi edi. Shunga qaramasdan, O'rta Osiyo byurosi bu fikrni inkor etdi, o'z qarorlarining birinchi bandiga Xorazm Respublikasini ham kiritdi. Lekin iyunda XKP MQ Ijroiya byurosi o'zining telegrammasi bilan maktub mualliflarining nuqtai nazarini qo'llab-quvvatladi. Shu munosabat bilan 1924-yil 12-iyunda bo'lib o'tgan RKP(b) MQ Siyosiy byurosi

---

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида 2-том. Т.: Шарк, 2000.Б. 288.

O`rta Osiyo byurosining majlisga tayyorlagan materiallariga tegishli tuzatishlar kiritishiga majbur bo`ldi. Siyosiy byuro Xorazm Respublikasini oldingi holida qoldirishga qaror qildi.

Lekin RKP(b) MQ O`rta Osiyo byurosi Xorazm Kompartiya MQ tarkibini yangilashga kirishdi. Natijada 26-iyunda Xorazm kommunistik partiyasi MKning yangilangan tarkibi 9-iyundagi qarorni bekor qildi va Xorazm uchun ham milliy chegaralanishning zarurligini e`tirof etdi. RKP(b) MQ Siyosiy byurosi O`rta Osiyo byurosining taklifi bilan yana bu masalaga qaytdi va Xorazmni Buxoro hamda Turkiston bilan bir qatorda milliy-hududiy chegaralanish jarayoniga qo`shdi.

Aslida, RKP(b) MQ Siyosiy byurosining 1924-yil 12-iyundagi qaroridan boshlab milliy-hududiy chegaralanishni tayyorlash jarayoni yangi bosqichga kirdi. 15-iyulda MQ O`rta Osiyo byurosi yangi tashkil etiladigan milliy respublikalar va viloyatlarning muvaqqat byurosini tashkil etdi. Rejalashtirilgan yangi milliy tuzilmalarini mazmunan to`ldirish, ularning hududlarini aniqlab chiqish, chegaralarni ajratish va belgilash lozim edi. Bu ish birmuncha oldinroq RKP (b) MQ O`rta Osiyo byurosi tashkil etgan hududiy komissiyada, uning milliy kichik komissiyalarida va janjalli masalalarni hal qilish uchun tuzilgan maxsus komissiyalarda boshlangan edi.

Hududiy komissiya (uning tarkibiga yangi tashkil etilayotgan respublikalar va viloyatlarning vakillari kirgan edi) majlislarining stenografik xisobotlari bugungi kunda bu ishni bajarganlardan birining obrazli iborasi bilan aytganda, «aholini milliy guruhlariga ajratish» muammolarining murakkabligi va xilma-xilligiga chinakam baho berish imkonini tug`diradi. Agar o`zbek va turkman kichik komissiyalarining vakillari umuman bitta nuqtai nazarda: chegaralanish asosida mustaqil «milliy sovet» respublikalari va avtonom viloyatlari tashkil etilishini yoqlagan bo`lsalar, Xorazm delegatsiyasi Xorazm Respublikasining daxlsizligini himoya qilishda davom etdi, qozoq kichik komissiyasi esa O`rta Osiyo sovet respublikalari federatsiyasini tuzish g`oyasini yana bir marta ilgari surdi. O`rta Osiyo hududini mo`ljallanayotgan milliy tuzilmalar o`rtasida chegaralarga ajratib olishda yanada ko`proq xilma-xillik ko`zga tashlandi. Chegaralanish uchun asos

qilib olingan ikki prinsip — milliy-hududiy va iqtisodiy prinsiplar O`rta Osiyoda mavjud bo`lgan sharoitga to`g`ri kelmadi. Hududiy komissiya a`zolari oldiga hal etilishi qiyin bo`lgan vazifalarni keltirib chiqardi, ular o`rtasida norozilik, va kelishmovchiliklarni chuqurlashtirdi, ba`zida esa g`alati va jiddiy vaziyatlarni yuzaga keltirdi.

Majlis qatnashchilari tayanch masalalarni ilmiy jihatdan yanada chuqurroq o`rganib o`tirmasdan oddiy ovoz berish yo`li bilan O`rta Osiyo federatsiyasi tashkil etilishi g`oyasiga (majlisda bu g`oyani S. Xo`janov asoslab bergan va himoya qilgan edi) qarshi fikr bildirib, O`zbekiston, Turkmaniston respublikalari tashkil etilishi va ularning bevosita SSSRga kirishini, O`zbekiston Respublikasi tarkibida Tojikiston avtonom viloyati va Qirg`iziston avtonom viloyati tarkib topishini yoqlab chiqdilar.<sup>1</sup>

1924-yil davomida o`tkazilgan Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalaridagi Kompartiyaning bir qator yig`ilishlari natijasida O`rta Osiyoda milliy-hududiy chegaranish amalga oshirildi.

1925-yil 13 fevralda Buxoroda O`zSSR Sovetlarining I syezdi ochildi. U 17-feralda «O`zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining tashkil topishi to`g`risidagi deklaratsiya»ni qabul qildi. Deklaratsiya O`zSSR tashkil topganligini qonunan rasmiylashtirdi va O`zSSRning ixtiyoriy ravishda SSSR tarkibiga kirganligini e`lon qildi. Deklaratsiyada qayd qilib o`tilganidek, «shu kundan e`tiboran o`zbek xalqi hududida Toshkent, Samarqand, Farg`ona, Qashqadaryo, Zarafshon, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarini o`z ichiga olgan bu xalq tarixida birinchi marta ishchi va dehqonlarning ittifoqdosh O`zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi ta`sis etiladi, unga Tojikiston Avtonom SSR kiradi».

1925-yil 13-mayda SSR Ittifoqi Sovetlarining III syezdi Turkmaniston va O`zbekiston Respublikasining SSSR Ittifoqi tarkibiga kirishi to`g`risida shu respublikalar «xalqlarining erkin xohishi»ni inobatga olib tasdiqladi.

Shu tariqa, O`zbekiston ittifoqdosh respublikasining qonunan rasmiylashtirish jarayoni tugallandi va jahon xaritasida SSSR tarkibidagi ittifoqdosh respublika

---

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида 2-том. Т.: Шарк, 2000. Б.292.

bo'lgan O'zbekiston milliy sovet respublikasi paydo bo'ldi. Bu — ko'p millatli respublika edi: jami 8131062 kishidan iborat bo'lgan O'rta Osiyo aholisidan 3963285 kishi O'zbekiston Respublikasiga o'tdi, ulardan o'zbeklar 3381579 kishini, ya'ni respublika aholisining 3/4 qismini tashkil etardi. Haqiqatda, O'rta Osiyo hududida yashovchi barcha o'zbeklarning qariyb 90%i O'zbekiston SSR hududida edi.

Shunday qilib, 1924-yilning oxiri bolshevizmning O'rta Osiyoni milliy-hududiy chegaralash borasidagi siyosati amalga oshirilishi bilan nishonlandi. Bu bolshevizmning asosiy mafkuraviy va siyosiy dushmani bo'lgan turkizmga qarshi kurash manfaatlari taqozosi bilan mohirona o'ylab topilgan harakat edi. Turkizm o'nlab yillar mobaynida chorizm va bolshevizmning imperiyacha muddaolariga qarama-qarshi turishning hal qiluvchi omili, butun O'rta Osiyo mintaqasi miqyosida qudratli milliy-ozodlik harakatining asosiy birlashtiruvchi kuchi bo'lib qolgan edi.

Mintaqa xalqlariga majburan tiqishtirilgan bu siyosatni amalga oshirish uchun vaqt va mablag' bilan bir qatorda katta kuch-g'ayrat sarflash talab qilindi. Birinchi davrda — milliy chegaralanish g'oyasi paydo bo'lgan 1920-yildan 1924-yilgacha, uni amalda ro'yobga chiqarish boshlangan paytgacha, uning mafkuraviy, siyosiy, madaniy-ma'naviy asoslash va shundan keyingi harakatlar uchun zamin tayyorlash mexanizmi ishga tushirildi. «Yagona turkiy millat bo'lmaganidek, yagona turkiy madaniyati va yagona turkiy til ham yo'q» degan shiorlar ostida to'rt yil mobaynida dastlab Turkiston, keyinroq Buxoro va Xorazm respublikalari xalqlari ongiga keng miqyosda tazyiq o'tkazildi, milliy o'xshash tuzilmalarning shakllanish jarayonidagi integratsiya sun'iy ravishda jadalashtirildi. Ikkinchi davr, 1924-yilda bevosita milliy chegaralanish o'tkazildi, uni boshdan oxirigacha RKP(b) MQ rahbariyati va uning muxtor vakillari rahbarligida O'rta Osiyo partiya tashkilotlari amalga oshirdilar. Mahalliy xalqlarning xohish-irodasi mutlaqo hisobga olinmadi va ularni o'rganish mexanizmi ishlab chiqilmadi.

Xalqlarni milliy chegaralash g'oyalarini amalga oshirish Bolsheviklarning taktik ustamonligi bilan muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarildi. Avvalo, bu g'oyaning dastlabki vazifasi hal etildi — turkiylar birligi mafkurasiga va amaliyotiga sezilarli zarba berildi.

Milliy tuzilmalar tashkil etilishi, ularga «milliy davlatchilik» maqomi berilishi bilan markaz mintaqa xalqlarining diqqatini tashqi dushmandan (ular uchun tashqi dushman Markazning o'zi edi) ichki muammolarga yo'naltirishga muvaffaq bo'ldi.

Lekin bu eng asosiysi bo'lib, Bolsheviklar bu harakat bilan o'zlarining strategik niyatlarida ham muhim yutuqlarni qo'lga kiritdilar. RSFSRning Turkiston Avtonom Respublikasi bilan bir qatorda milliy-hududiy chegaralanishiga huquqiy jihatdan mustaqil Buxoro va Xorazm respublikalarining ham jalb qilinishi, ularning qismlarga bo'linishi va ular asosida yangi milliy tuzilmalarning tashkil topishi, ularning SSSR tarkibiga kiritilishi natijasida O'rta Osiyoning bu ikki qadimgi davlati dunyoning siyosiy xaritasidan butunlay yo'q qilindi. Shu tariqa, Bolsheviklar chorizmning imperiyachilik siyosatiga, uning «O'rta Osiyo mintaqasiga bo'lgan geopolitik da'volari»ga sadoqatlarini yana bir karra tasdiqladilar. Shu davrdan boshlab qadimiy Turkiston hududi Bolsheviklar davlatining ikki g'ildirakli aravasiga mustahkam bog'lab qo'yildi.

O'rta Osiyo xalqlari uchun bu chegaralanish va tashkil etilgan yangi «milliy davlatchilik» ularning bundan keyingi taraqqiyotiga yangi nozik farqlar olib kirdi. O'rta Osiyo davlatchiligining ming yillik rivojlanish tarixiga putur yetkazildi. Hukmron sulolalarning tez-tez almashishiga, makon-hudud mezonlarining o'zgarishiga qaramay, O'rta Osiyo davlatchiligining asosini tashkil qilgan muhit — uning aholi tarixan turli etnik guruhlardan tashkil topganligi va uning tarqoq holda joylashganligi, uning o'ziga xos bo'lgan xo'jalik, maishiy, diniy, ma'naviy-madaniy hayotining mushtarakligi o'zgarmay qolaverardi. Har bir etnik guruh o'zining muayyan joyiga ega bo'lgani holda bu mushtaraklikning tarkibiy, o'zgarmas teng qiymatga ega bo'lgan qismi bo'lib turaverardi. Endi esa, ittifoqdosh, muxtor respublikalar va viloyatlarning tashkil topishi bilan millatlarni farqlash, tabaqalash joriy etildi. Bu farq faqat ularning tashkil topish maqomi bilangina emas, balki uning ichidagi mazkur tuzilmaga nom bergan etnosning nomi va «oz sonli millatlar» bilan ham yaqqol ko'zga tashlanar edi.

Shundayq qilib, millatning bir qismi o'z ota-bobolari yerida yashab, mehnat qilsada, rasmiy ta'rifga ko'ra, «oz sonli millat»ga aylanib qolgan edi, bu esa ularning ongiga ta'sir qilmasdan qolmasdi, o'z huquqlarining qandaydir poymol qilinganligida deb tushunardilar, bu hol tuzilmalar ichidagi etno-milliy jarayonlarga

shak-shubhasiz salbiy ta'sir ko'rsatardi. Vaziyatning murakkabligi «bo'lib yuborilgan etnoslar» muammosi bilan yanada chuqurlashardi, chunki yangi milliy tuzilmalar «titulli» millatning asosiy qismini o'zida jamlagan bo'lsada, tarqoq holda joylashish tufayli ko'p etnik guruhlardan iborat jamiyat ham bo'lib qolgandi, ularning har birida o'xshash etnoslarning ma'lum qismi mavjud edi. Aslida, Bolsheviklar andozasidagi milliy-hududiy chegaralanish O'rta Osiyo xalqlari O'rtasidagi bo'lajak millatlararo munosabatlar jarayonlari ostiga ma'lum vaqtda portlaydigan mina qo'yish degan gap edi, ular favqulodda vaziyatlarda portlab, turli nizolar va keskin holatlar keltirib chikarishi muqarrar edi.<sup>1</sup>

Asardagi ushbu fikrlar bugungi kunda o'z tasdig'ini topmoqda. Biz bularni O'rta Osiyoda bo'lib o'tgan millatlar o'rtasidagi munosabatlardan ko'rishimiz mumkin. Bundan xulosa qilib aytadigan bo'lsak Bolsheviklar shunday yo'l bilan ilgari Qadimgi Rim Imperiyasi davridan buyon qo'llab kelinayotgan “Bo'lib tashla va hukmronlik qil” shioriga amal qilganliklarini ko'rishimiz mumkin.

Rustam Shamsutdinov va Shodi Karimovlarning 2010-yilda chop etilgan III jildlik “Vatan tarixi”ning II jildi O'zbekistonning Sovet mustamlakachiligi tarixiga bag'ishlangan.

Ma'lumki Sovetlar O'rta Osiyoni bosib olgandan so'ng, bu yerda ham Sovet davlatchiligini barpo etib, uni o'z mustamlakalariga aylantirishga kirishishdi.

Sovetlar va kompartiya yuritgan siyosatning markazida «dunyoda eng adolatli va birdan bir to'g'ri bo'lgan lenincha milliy siyosat» yotardi. Bu siyosatning bosh talabi «millatlarning to milliy mustaqil davlat bo'lib ajralib chiqishiga qadar o'z taqdirini o'zi belgilashi»dan iborat nihoyatda jozibador talabdir. Ammo milliy masalada bolsheviklar dasturida ilgari surilgan bu bosh talab faqat deklorativ xarakterga ega bo'lib, amalga oshmaydigan quruq sarobdan iborat edi.

Ushbu kitobda O'rta Osiyoning milliy-hududiy chegaralash amalga oshirilishining maqsadi quyidagicha bayon etilgan:

Sovetlar hukumati va kompartiya Turkistonda «Lenincha milliy siyosat» niqobi ostida jahon tarixida ko'rilmagan manfur va reaksiyon siyosat olib bordi. Bu

---

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон Совет мустанлакчилиги даврида 2-том. Т.: Шарк, 2000. Б.301.

siyosatning bosh yo'nalishi «bo'lib tashla, hokimlik qil!» dan iborat bolib, u azaldan, asrlar osha yagona va bir butun bo'lgan Turkistonni parchalab yuborishga qaratilgan edi. Ana shu manfur maqsadni amalga oshirish uchun 1924-yil, 31-yanvarda O`rta Osiyo da milliy davlat chegaralanishini o`tkazish to`g`risida RKP(b) Markaziy qo`mitasining tashkiliy byurosi qaror qabul qildi va bu masalani o'rganib chiqish Y. E. Rudzutakka topshirildi. Sovetlar davrida yaratilgan tarixga oid manbalarda riyokorlik bilan Turkiston, Buxoro va Xorazmning mahalliy firqa va sovet tashkilotlari 1924-yil boshida «O`rta Osiyoning yangi sovet milliy respublikalarini tashkil etish vazifasini o`rtaga» qo`yganligini yozgan edi. Bu amalda lo`ttibozlik va siyosiy o'yin bo`lib, mustamlakachilarning qora qilmishlarini oqlashga xizmat qilardi. Chunki O`rta Osiyoni «milliy belgilarga qarab» bo'lib tashlash g`oyasi 1924-yilda ko`tarilgan emas. Bu g`oya velikoruslar tomonidan 1920-yilning boshidayoq Turkkommissiya raisi Y. E. Rudzutak tashabbusi bilan e'lon qilingan tezislarda Turkiston ASSRni milliy belgilarga qarab, bo'lib tashlash va muxtor (avtonom) respublikalar tuzish taklif qilingan edi. Mazkur tezislar shu yilning iyun oyida RKP(b) MQsining partiyaning Turkistondagi vazifalari haqida deb nomlangan qarori loyihasiga kiritildi. V. I. Lenin 1920-yil 13-iyunda Turkkommissiya qarori loyihasini shaxsan ko'rib chiqdi va o'sha paytdayoq Turkistonni «Uzbekiya», «Kirgiziya», «Turkmeniya» va boshqa etnik guruhlariga bo'lib parchalab tashlashni, ularning xaritasini tuzish zarurligini ko'rsatgan edi. U keyinchalik 1920-yil 22-iyunda ustamonlik bilan oqibatini o'ylab «. . . respublikani 3 qismga bo'lish oldindan hal qilinmasin» deb ogohlantirib ham qo'ydi. Buni xalq «suvdan oldin band solish» degan naql bilan asoslaydi.<sup>1</sup>

“O`zbekistonning yangi tarixi”da keltirib o`tganimizdek, Turor Risqulov O`rta Osiyoni chegaralashga qarshilik ko`rsatgan shaxslardan biri bo`lgan.

1920-yilidayoq T. Risqulov boshchiligidagi bir guruh milliy istiqlol fidoyilari Y. Rudzutak tezislari qoralab, unga qo'shilmasliklarini ilgari surdilar. Ular turkiy xalqlar tarixiy ildizi jihatidan yagona va bo'linmasdir, ularning tili, dini, urf-odati,

---

<sup>1</sup> Shamsutdinov R, Karimov SH. Vatan Tarixi. T.: Sharq, B. 251.



va madaniyati bir ekan yagona Turkiston ularning mushtarak uyi ekanligi g'oyasini ko'tarib chiqdilar. Ammo bu fikrni markaziy sovet hukumati va kompartiya MQsi «panturkizm», «panislomizm» va «burjua millatchiligi»da aybladi va uning ilhomchilarini tegishli suratda jazoladi. Turkiston, Buxoro va Xorazmda milliy davlat chegaralanishni o'tkazish bilan bog'liq masalalarda 1924-yil iyuniga qadar turli xil fikr-qarashlar bayon etildi. Bu fikr-xulosa va munozaralar yagona Turkiston xalqlari o'rtasida mahalliychilik nizolarining kuchayishiga sabab bo'ldi.<sup>2</sup>

Ma'lumki O'rta Osiyoni milliy-hududiy chegaralash davrida ko'plab munozaralar bo'lib, bir qator rahnamolar unga qarshi chiqishgan. Shunday bo'lsada 1924-yil, 12-iyunida RKP(b) MQsining Siyosiy Byurosi «O'rta Osiyo respublikalarini (Turkiston, Buxoro va Xorazm) milliy chegaralash to'g'risida»gi masala bo'yicha qaror qabul qildi. Unda quyida-gilar ko'zda tutildi:

a) Turkiston, Buxoro va Xorazmning turkmanlar yashaydigan qismlarida mustaqil Turkmaniston Respublikasi tashkil etish;

b) Turkiston va Buxoroning o'zbeklar yashaydigan qismlaridan mustaqil O'zbekiston respublikasi tashkil etish;

d) Turkmanlarni ajratib olib, Xorazm Respublikasini mavjud holda qoldirish. Chunki Xorazm Respublikasi rahbarlari 1924-yil, 8-mayda RKP(b) MQsiga «Xorazmda milliy masalani hal qilish to'g'risida maktub» yo'llab, unda Xorazmni milliy chegaralashga qo'shmaslikni so'ragan edilar. Ular o'z fikrlarini Xorazmning olisda joylashganligi, iqtisodiy jihatdan ajralib turganligi, qadimdan Xorazm davlat sifatida mavjudligi, davlatchilik an'analari davom etib kelayotganligi kabi masalalar bilan asoslagan edilar. 1923-yil, oktabridan Xorazm kompartiyasining mas'ul kotibi lavozimida ishlagan Qalandar Odinayev ham bu g'oyani ma'qullagan edi. Ammo 1924-yil, iyul oyida u Markazning fatvosi bilan ishdan olib tashlangach, 1926-yilda Xorazm Kompartiyasi respublikaning chegaralanishiga o'z «roziligi»ni bildirdi.

RKP(b) Markaziy Qo'mitasi Siyosiy Byurosining 12-iyundagi qarorida shuningdek, Turkistonning qozoq tumanlarini Qozog'iston Muxtor Respublikasiga birlashtirishni,

---

<sup>2</sup> Shamsutdinov R, Karimov SH. Vatan Tarixi. T.: Sharq, B.252.

hamda bevosita RSFSR tarkibiga kiruvchi Qirg'iziston Muxtor viloyatini va O'zbekiston Respublikasi tarkibida tojik muxtor viloyatini tuzishni zarur deb topdi.

Hamma ish Moskvada Kompartiya MQsi Siyosiy Byurosi qarori bilan hal etilib bo'lgach u joylarda muhokama qilinib «yakdillik bilan ma'qullandi va qo'llab-quvvatlandi». Nihoyat 1924-yil, 27-oktabrda SSSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Qo'mitasining II Sessiyasi O`rta Osiyo xalqlarining «istagiga asoslanib» Turkiston MIQning butun Buxoro va butun Xorazm sovetlari qurultoylarining milliy chegaralanish hamda yangi sovet sotsialistik respublikalar va viloyatlar tuzish to'g'risidagi «iltimosi»ni qondirdi.

Yuqoridan qabul qilingan qarorlar asosida Turkiston, Buxoro va Xorazmda milliy davlat chegaralanishi o'tkazildi. Turkiston, Buxoro va Xorazm sovet respublikalari o'rnida O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi, Turkmaniston Sovet Sotsialistik

Respublikasi, O'zbekiston SSR tarkibiga kiradigan Tojikiston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasi, RSFSR tarkibiga kiradigan Qoraqirg'iziston(Qirg'iziston) Muxtor viloyati va Qirg'iziston (Qozog'iston) Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasi tarkibiga kiradigan Qoraqalpog'iston Muxtor viloyati tashkil etildi. Turkistonning qozoqlar yashaydigan tumanlari ham QASSR tarkibiga kirdi. O'zbekiston SSR hududida butun hokimiyat 1924-yil, 31 -oktabrida tuzilgan O'zbekiston SSR Revolyutsion Komiteti qo'liga o'tdi. O'zbekiston SSR Inqilobiy Qo'mitasining raisi etib Fayzulla Xo'jayev tasdiqlandi. Turkmaniston SSRda Inqilobiy Qo'mitani Nedirboy Oytoqov boshqardi. 1924-yil, noyabr va dekabr oylarida Nusratulla Lutfullayev raisligida Tojikiston ASSR Inqilobiy Qo'mitasi, I. Aydarbekov raisligida Qoraqirg'iz (Qirg'iziston) muxtor viloyati Inqilobiy Qo'mitasi faoliyat ko'rsatdi. Inqilobiy Qo'mitalar «milliy jumhuriyat va muxtor viloyatlar»ni tuzish ishi bilan shug'ullandilar.

1925-yil, 13-fevralda Buxoro shahrida maxsus qurilgan «Xalq uyi»da O'zbekiston Sovetlarining I umumo'zbek qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda «O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasini tuzish to'g'risida» deklaratsiya qabul qilindi. Dekloratsiyada O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzilganligi qonuniy rasmiylashtirildi. O'zbekiston Respublikasi SSSR tarkibiga kirdi.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Shamsutdinov R, Karimov SH. Vatan Tarixi. T.: «Sharq» 253-bet

O'tkazilgan milliy davlat chegaralanishi natijasida O'zbekiston SSR tarkibiga quyidagi hududlar kirdi: a) Sobiq Turkiston Respublikasidan Samarqand viloyatining Jizzax, Kattaqo'rg'on va Xo'jand uyezdlarining 41 volosti; Sirdaryo viloyati Toshkent va Mirzacho'l uyezdlarining 24 volosti; Farg'ona viloyati Andijon, Qo'qon, Namangan, Farg'ona uyezdlarning 70 volosti va 7 qishloq okrugi (Shohimardon, Vodil va boshqalar); b) sobiq Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasidan Boysun, Buxoro, G'uzor, Qarshi, Karmana, Nurota, Shahrisabz, Sherobod va qisman Sariosiyo viloyatlar; d) sobiq Xo-razm Sovet Sotsialistik Respublikasidan 23 sovet (tuman) keyinchalik bular Gurlan, Yangi Urganch va Xorazm uyezdlarini tashkil etgan edilar.

1929-yilga qadar O'zbekiston SSR tarkibida bo'lgan Tojikiston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasi Turkiston va Buxoroning bir qator tumanlari bazasida tashkil etildi. Ular quyidagilardan iborat edi:

a) sobiq Turkiston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasidan Samarqand viloyati Samarqand va Xo'jand uyezdlarining 12 volosti va Farg'ona viloyatidan Pomir tumani;

b) Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasidan Sharqiy Buxoro deb yuritiladigan barcha hududlar: Garm, Hisor, Ko'lob, Qo'rg'ontepa, Dushanba va qisman Sariosiyo viloyatlari bilan birgalikda.

Qoraqalpog'iston Muxtor viloyati Turkistonning Amudaryo viloyatidan va Xorazmning 3 ta sovet(tuman)idan tashkil topdi. U ma'muriy jihatdan to'rt okrugga: To'rtko'l, Chimboy, Xo'jayli va Qo'ng'iro't okruglariga bo'lingan.

O'zbekiston SSR hududi respublika tashkil etilgan dastlabki yillarda 312. 394 kv. km dan iborat bo'lgan. Shu jumladan O'zbekiston tarkibidagi Tojikiston ASSRning hududi (Xo'jand okrugidan tashqari) 135-620 kv. km edi. O'sha paytda O'zbekistonning aholisi (Tojikistondan tashqari) 3 million 963 ming 285 kishi O'rta Osiyo jumhuriyatlari aholisining yarmini tashkil etardi. 1962-yilda o'tkazilgan aholi ro'yxat ma'lumotlariga qaraganda O'zbekistonda (Tojikistondan tashqari) 4 million 447 ming

555 kishi yashagan. Ularning 74, 2 foizi o'zbek, 7, 8 foizi tojiklar, 5, 6 foizi ruslar, 2, 4 foizi qozoqlar, 2, 04 foizi qirg'izlardan iborat edi.<sup>1</sup>

Asarda O`rta Osiyoda o`tkazilgan milliy-davlat chegaralanishining ahamiyati quyidagicha talqin qilingan:

Shunday qilib, markaziy sovetlar hukumati va kompartiya O`rta Osiyo jumhuriyatlarida milliy davlat chegaralanishini o'tkazdi va yagona turkiy xalqlarni parchalanishini ta'minlab, milliy xonadonlarga bo'lib yubordi. Bu bilan u o'lkada buyuk rus mustamlakachiligi siyosatini yurgizish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratdi va shovinistik tartib-qoida va idora qilish talablariga javob bera oladigan boshqarish uslubini joriy etdi. Chunki milliy davlat chegaralanishi shunday ayyorlik va ustalik bilan o'tkazildiki, bu hududda qadim-qadimdan bir ota-onadan tug'ilgan qon-qardoshlardek do'st va ahil bo'lib yashab kelayotgan qirg'iz, qozoq, tojik, turkman, o'zbek va qo-raqalpoqlarning birortasi ularga qancha hududiy maydon yer tekkanligidan qat'i nazar bu bo'linishdan qoniqish hosil qilmadilar, ular milliy chegaralanishdan norozilik saqlanib qoldi. Aslida bolsheviklar o'tkazgan bu milliy-hududiy chegaralanish O`rta Osiyo xalqlari o`rtasidagi bo'lajak millatlararo munosabatlar, jarayonlar ostiga ma'lum vaqtda portlaydigan mina qo'yish degan gap edi, ular favqulodda vaziyatlarda portlab, turli nizo va keskin holatlar keltirib chiqarishi mumkin edi. Bu hol hozirgi kunda ham o'zining salbiy ta'siri aks sadosini ko'rsatmoqda. Norozilikning bosh sababi - milliy-hududiy chegaralanishning adolatli o'tkazilmaganidadir, u yoki bu millat vakillari yashaydigan «barcha hududlar»ning o'z respublikasi hududiga ajratib berilmaganligi, u yerlarning boshqa millat nomi bilan ataluvchi jumhuriyatlar qaramog'ida qolib ketganligidir.<sup>1</sup>

2011-yilda O. Atamirzayeva, V. Gentshke, R. Murtazayevalarning “Узбекистан Многонациональный : Историко-Демографический Аспект” nomli kitoblari nashr etilgan bo`lib, unga ko`ra 1924-yili o`tkazilgan milliy-davlat chegaralanishi va O`zbekiston SSRning tashkil etilishi markazning qo`li va nazorati ostida amalga

---

<sup>1</sup> Shamsutdinov R, Karimov SH. Vatan Tarixi. T.: Sharq, B. 257.

<sup>1</sup> Shamsutdinov R, Karimov SH. Vatan Tarixi. T.: Sharq, B. 255.

oshirilgan. Bu o`z davlatini tuzmoqchi bo`lgan o`zbek xalqining tashabbusi bilan amalga oshirilmagan. Bu davrdagi xalq harakatlari vakillarining ma`lu qismi boshqa turkiy xalqlarni va musulmon davlatlarini birlashtirish g`oyasini ilgari surganliklari uchun, SSSR tarkibidagi milliy davlatlar tuzish jarayoniga ular jalb etilmagan.<sup>1</sup>

Ma`lumki, milliy-hududiy chegaralanish natijasida shunday hududlar vujudga keldiki, ular O`rta Osiyodavlatlari o`rtasida nizoli hududlarga aylanib bormoqda. Ushbu asarda bu narsa quyidagich talqin qilingan: Sovet hokimiyati “bo`lib tashla va hukmronlik qil“ imperiyacha prinsipiga ko`ra Turkistonni chegaralashni O`rta Osiyodavlatlari o`rtasida shunday o`tkazdiki, bu yerda bugungi kunda ko`plab muammolar vujudga kelmoqda.<sup>2</sup>

## **2.2. Milliy-davlat chegaralanishi horij tarixchilari nigohida**

Ma`lumki, XX asr oxirida jahon tarixida misli ko`rilmagan voqealar ro`y berdi. Bu Sovet Ittifoqining parchalanishi bog`liq edi. Uning parchalanishi natijasida 15ta mustaqil suveren davlatlar tashkil topdi.

Albatta, ularning barchasida tarixga sinfiylik nuqtai nazaridan qarash yakun topdi va tarix fani kommunistik mafkuradan xoli raxishda rivojlandi. Bugungi kungacha bo`lgan davr oralig`ida bu davlatlardan ko`plab tarixchi olimlar yetishib chiqdilar. Ular o`z millatlarining haqqoniy tarixini yoritishga astoydil kirishdilar. Bu davrda sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanish masalasiga bo`lgan qarash o`zgardi.

2004-yilda Qirg`iziston Respublikasida chop etilgan o`rtamaktablarning 9-sinfi uchun darsligida ko`rsatilishicha, O`rta Osiyoning milliy-hududiy taqsimoti va Qirg`iz avtonom viloyatining tuzilishi, uning huquqiy jihatdan cheklanganligidan qat`i nazar, qirg`iz xalqining taqdiri uchun katta ahamiyatga ega bo`ldi. Patriarxal urug`chilik, qaramlik, va Rossiya imperiyasining chekka o`lkasi bo`lishi tufayli Turkistonning turli viloyatlarida bo`linib qolgan qirg`iz xalqi

---

<sup>1</sup> O.Atamirzayeva, V.Gentshke, R.Murtazayeva. *Узбекистан Многонациональный : Историко-Демографический Аспект*. Т.: Yangi asr avlodi, 2011. B. 166.

<sup>2</sup> O.Atamirzayeva, V.Gentshke, R.Murtazayeva. *Узбекистан Многонациональный : Историко-Демографический Аспект*. Т.: Yangi asr avlodi, 2011. B.184

qaytadan ma`muriy bir butun hududga- avtonom viloyat hududiga birlashtirildi. Cheklangan avtonomiya shaklida bo`lsa-da, qirg`iz xalqining bir milliy davlatga birlashishi –xalqning hududiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarini mustahkamlash va millat bo`lib shakllanishi uchun qulay sharoit yaratdi.

Qirg`iz xalqi o`zining milliy davlatchiligini bundan buyon rivojlantirish, davlat hokimiyati va davlat boshqaruvi tizimini tuzish imkoniyatiga ega bo`ldi. Qirg`izistonning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti tezlashdi. Milliy avtonomiyaning e`lon qilinishi qirg`iz xalqi tarixidag keskin burilishlardan biri bo`lib qoldi.<sup>1</sup>

Mustaqillik davrida sovet hukumati tomonidan chegaralash amalga oshirilgan hududlarda ko`pgina milliy nizolar kelib chiqdi. Bu, o`z navbatida, ko`pgina tarixchilarning e`tiborini tortdi.

Rus tarixchilaridan biri, Moskva shahrining sobiq meri G. Popovning “Ошибка в проекте. Ленинский тупик.”asarida shu masalaga doir muhim ma`lumotlar berilgan. Bolsheviklar rahbarlari bosib olgan o`lkalarini iloji boricha ko`proq ushlab turishlari uchun ham bu hududlarni millatlararo nizolarni keltirib chiqarishi muqarrar bo`lgan hududlarga taqsimlashdi.

Tarix O`zbekiston, Qozog`iston, Qi`rg`iziston, Tojikiston kabi davlatlarni bilmas edi. ... U yerdagi chegaralar bo`lsa, shunday o`tkazildiki millatlararo nizolar bo`lishini oldindan ko`zda tutar edi.<sup>2</sup>

1936-yilda Qirg`iziston respublikasi tashkil etilgan vaqtda Qirg`iziston SSR tarkibiga Fa`rgona vodiysining aholisining ko`pchiligini o`zbeklar tashkil etadigan O`sh va Jalolobod viloyatlari ajratib berildi.

O`sha paytda qirg`izlar u yerda bor yo`g`i 10 foizni ham tashkil etmas edi. Bu qaror bo`lsa sovet stilida ifodalanib: “Sizlarning qayerda yashashingizning ahamiyati yo`q-O`zbekistondami yoki Qirg`izistondami, chunki bizda umumiy Vatan, hammamiz uchun SSSR mavjud”.<sup>3</sup>

---

<sup>1</sup> Қирғизистон тарихи. Ўрта мактабларнинг 9-синфи учун дарслик. Ўш. 2004. Б. 47.

<sup>2</sup> Credo.ru

<sup>3</sup> Credo.ru

O`sh Davlat Universiteti Professori, tarix fanlari nomzodi T. Qodirov va tarix fanlari nomzodi, O`sh davlat universiteti dotsenti S. Smadiyarovlarning “ Конфликтов в Киргызистане и Центральной Азии ” nomli internetda e`lon qilingan maqolalari 2011-yil iyul oyidagi O`sh voqealariga bag`ishlangan bo`lib, unda milliy-hududiy chegaralanish masalasiga to`xtalib o`tilgan.

Sovet Ittifoqi parchalanganidan so`ng O`rta Osiyoning mustaqil davlatlari o`rtasidagi munosabatlarni tartibga solishdagi eng qiyin masala bu, ular o`rtasidagi chegaralarni belgilash masalasi bo`lib qoldi. Ko`p bahs va munozaralar bo`lib, bu hattoki chegara hududlardagi millatlar o`rtasidagi nizolarga ham sabab bo`ldi. Mustaqil, suveren qirg`iziston davlati uchun ham milliy chegaralarning belgilanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O`rta Osiyodagi miliy-hududiy muammolarning ildizi uzoqqa borib taqaladi. Buning sababi 1924-yilda yuqoridan turib amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanishdir...

Ushbu jarayondan olinadigan tarixiy saboq shundaki, hattoki bir davlat ichidagi hududiy nizolar doimo millatlar o`rtasidagi munosabatlarning yomonlashuviga olib keladi. Sobiq ittifoq davlatlarininng bugungi kundagi mustaqillik davrlarida bunga yo`l qo`yib bo`lmaydi. Ilgari xo`jaliklar o`rtasidagi muammo bo`lgan yer talashishlar bugungi kunda o`z-o`zidan davlatlararo muammoga aylanib qolmoqda.<sup>1</sup>

[www.allbest.ru](http://www.allbest.ru) saytida berilgan Tojikistonning miliy –hududiy chegaralanishiga oid maqolada bo`lsa nisbatan boshqacharoq fikrlar uchraydi.

1924-yil 14 (27)-oktabrda SSSR MIK ninh II sessiyasi milliy-hududiy chegaralanish masalasini hal qildi va Turkmaniston SSR, O`zbekiston SSR, O`zbekiston SSR tarkibida Tojikison ASSR, Qozog`iston ASSR va RSFSR tarkibida Qoraqirg`iz va Qoraqalpoq avtonom viloyatlari tashkil etildi. Yangi tojik davlatining tahkil etilishi tojik xalqi uchun qiyidagilarni olib keldi:

---

<sup>1</sup> Credo.ru

Birinchidan, o'z davlatining tashkil etilishi tojik xalqni keng qamrovli siyosatga jalb etdi;

Ikkinchidan, milliy davlatning tashkil topishi milliy o'zlikni, milliy madaniyatni va milliy madaniyat va davlatchilikni rivojlantirdi.

Uchinchidan, mo'g'ul-turklarning u uzoq asrlik tojik xalqiga assimilyatsiyasining oldini oldi.

Ushbu maqolada Buxoro va Samarqandning O'zbekistonga berilishiga nisbatan o'zgacha munosabat bildirigan. 1924-yil 26-noyabrda Tojikiston ASSR hukumati –respublika inqilobiy qo'mitasi tuzildi. Inqilobiy qo'mita rahbari etib, Nusratulla Maxsum tayinlandi. 1924-yil 6-dekabrda vaqtinchalik boshqaruv partiya organi O'zbekiston KPning Tojikiston ASSRdagi tashkiliy byurosi tuzildi. Tojikiston inqilobiy qo'mitasi Dushanbe shaharini respublika poytaxti deb e'lon qildi. Samarqanddan 70 km uzoqlikda joylashgan Panjikent viloyatining Tojikistonga berilishi natijasida panturkistlar (pano'zbeklar) ham milliy-hududiy chegaralanish jarayonining nihoyasiga yetkazilmaganligini anglab yetishdi. Shuning uchun ham aholisining asosini tojiklar tashkil etuvchi Samarqandni yo'qotib qo'yishdan qo'rqib, 1924-yilda uni O'zbekiston SSRning poytaxti deb e'lon qilishdi. Tojikistonning poytaxti Dushanbe qishlog'i bo'lganidan so'ng, 1930-yilda ular o'z poytaxtlarini Toshkentga ko'chirishdi.

Tojikiston ASSRning O'zbekiston SSR tarkibida bo'lgan 5 yil davomida tojik davlat rahbarlarining qat'iyatsizligi tufayli tojiklarning madaniy markazlari-Samarqand va Buxoroni qaytarishning iloji bo'lmay qoldi.<sup>1</sup>

Ushbu maqola haqida xulosa qilib aytadigan bo'lsak, unda milliy-hududiy chegaralanish masalasiga xolis yondashilmagan. Chunki milliy-hududiy chegaralanish Turkiston aholisining xohishi bilan amalgam oshirilmagan edi.

---

<sup>1</sup>[www.allbest.ru](http://www.allbest.ru)



## **Xulosa.**

XX asrning 20-yillarida amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanish O`rta Osiyo xalqlari hayotida muhim voqea bo`ldi. Shu davrdan boshlab Markaziy Osiyoda azaldan yashab kelayotgan xalqlar: o`zbeklar, qozoqlar, qirg`izlar, tojiklar, turmanlar, qoraqalpoqlar sovet tuzumi doirasida cheklangan bo`lsa ham o`z milliy davlatlariga ega bo`ldilar. Biroq sovetlarning bundan asosiy maqsadlari O`rta Osiyoni o`zlariga to`la bo`ysundirish bo`lgan. Shuning uchun ham yangi tashkil topgan davlatlarning har biri “o`z ixtiyori bilan” SSSR tarkibiga kiritilgan.

Bolsheviklar bu ishni Turkistonni bosib olgan davrlaridan boshlab, ya`ni 1918-yildanoq amalga oshirmoqchi bo`lishgan. O`sha davrdayoq ilg`or ziyolilar sovetlarning olib borayotgan milliy siyosatlariga nisbatan o`z noroziliklarini bildirishgan. Grigoriy Safarov, Ahmad Zakiy Validiy To`g`on singari ziyolilar bu milliy siyosatning tub mohiyatini tushunib, sovet ma`muriyatini chor Rossiyasi olib borgan soyosatni davom ettirayotganligini k`orsatib o`tishgan. Milliy-hududiy chegaralash amalga oshirilayotgan vaqtda ham O`rta Osiyolik davlat arboblari Turkistonni yagona hudud ekanligini, bu ishni amalga oshirishda shu narsani e`tiborga olish lozimligini ta`kidlab o`tganlar. Bularga misol qilib biz Fayzulla Xo`jayev, Turor Risqulov kabi davlat arboblari aytib o`tishimiz mumkin. Ularning qarshiligiga qaramasdan, milliy-hududiy chegaralanish amalga oshirildi va O`rta Osiyoda sovet respublikalari qaror topdi. Milliy chegaralanish o`tkazilgandan so`ng XX asrning 30-yillariga kelib O`rta Osiyoda sovetlar hukmronligi to`la qaroq topdi. Shu davrdan boshlab bu masalaga bo`lgan e`tibor o`zgardi va endi uning faqat ijobiy tomonlari yoritildi.

Ikkinchi jahon urushi keyingi davrda yaratilgan asarlarda ham xuddi shunday ruh ustuvor bo`ldi. Masalan, Habib Tursunovning “O`zbekiston SSRning barpo etilishi” asarida, “O`rta Osiyo kommunistik tashkilotlari tarixi” kitobida yoki “O`zbekiston SSR tarixi”ning uchinchi jildida O`rta Osiyoda o`tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish bu yerda yashovchi xalqlarni o`z milliy davlatiga birlashtirgan hodisa ekanligi bayon etilgan.

XX asrning 80-yillaridan boshlab, Sobiq SSSRning bir qator mamlakatlarida millatlararo nizolar avj oldi va mana shu nizolar bu ko`pchilikni tarixga chuqurroq yondashishga majbur etdi. Ma`lumki, bu millatlararo nizolarning asosiy sabablaridan beri bu faqat bir millatdan iborat milliy davlat tuzish g`oyasi bo`lgan. Shu narsa ayonki faqat bir millatdan iborat davlat hech qachon bo`lmagan va bo`lmaydi ham. Statistik ma`lumotlarga ko`ra, Sovet Ittifoqida 130 dan ortiq millatlararo nizolar bo`lgan.

Sobiq SSSR parchalanishi natijasida 15 ta mustaqil davlat tashkil topdi va ularda demokratik tuzumlar o`rnatildi. Bu davrda tarixga haqqoniy yondashish qaror topdi. Bizning mustaqil O`zbekistonimizda ham tarix fanining o`rni ahamiyati oshib bordi. Mamlakatimiz rahbarining tashabbuslari bilan tarix fanini rivojlantirishga doir bir qator qarorlar qabul qilindi. Prezidentimiz ham o`zlarining bir qator asarlarida tarixga haqqoniy yondashish zarurligini ta`kidlaganlar. Ularning bir qator asarlarida O`rta Osiyoda amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanish masalasiga to`xtalib o`tilgan.

Masalan, ularning “O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarlarida milliy-hududiy chegaralanish masalasiga quyidagicha ta`rif berilgan: “Aslida bolsheviklar o`tkazgan bu milliy-hududiy chegaralanish O`rta Osiyo xalqlari o`rtasidagi bo`lajak millatlararo munosabatlar, jarayonlar ostiga ma`lum vaqtda portlaydigan mina qo`yish degan gap edi, ular favqulodda vaziyatlarda portlab, turli nizo va keskin holatlar keltirib chiqarishi mumkin edi.”<sup>1</sup>

Bundan tashqari davlatimiz rahbarining mustaqilligimizning 20 yilligi munosabati bilan chop etilgan asarlari “O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” asarlarida aytib o`tilishicha, “Biz O`rta Osiyo va hamdo`stlik to`g`risida gapirishimiz mumkin. Bu mintaqa respublikalari o`rtasidagi chegaralar-juda qaltis masala. Bir vaqtlar bunday chegara, aytish mumkinki, sun`iy ravishda o`tkazilgan.”<sup>2</sup>

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T: O`zbekiston, 1997. 61-bet.

<sup>2</sup> Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T: O`zbekiston, 2012. 283-bet.

Shunday qilib, sovet davri tarixshunosligida O`rta Osiyoda amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanish kommunistik ta`limot ruhida noto`g`ri talqin etilgan. Mustaqillik davri adabiyotlarida bu masalaga obyektivroq yondashilmoqda. Ammo ushbu muammo hozirga qadar o`zining tugal yechimini topganicha yo`q.

## Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T: O'zbekiston, 1997.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: O'zbekiston, 2012.
3. Karimov I.A. Turkiston umumiy uyimiz. T: O'zbekiston, 1995.
4. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi- xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T: O'zbekiston, 2000.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T: O'zbekiston, 2009.
6. Alimova D., va boshq. O'zbekiston tarixi. T.: Sharq, 2000.
7. O. Atamirzayeva, V. Gentshke, R. Murtazayeva. Узбекистан Многонациональный : Историко-Демографический Аспект. T.: Yangi asr avlodi, 2011
8. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. T.: Sharq, 2010.
9. Tursunov X. O'zbekiston SSRning tashkil topishi. T.: Fan, 1957.
10. O'zbekistonning yangi tarixi: O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Ikkinchi kitob. T.: Sharq, 2000.
11. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.: O'zbekiston, 2006.
12. O'zbekiston SSR tarixi. I. Mo'minov tahriri ostida. T.: Fan, 1971.
13. Qirg'iziston tarixi. O'sh: 2004.
14. O'rta Osiyo kommunistik tashkilotlari tarixi. T.: O'zbekiston, 1969.
15. Якубовская С.И. Развития СССР как союзного государство, 1922-1936 г-г М.: Политиздат, 1972.
16. Крыльцов. И. И. Государственное размежевание Средне-Азиатских Республик// Вестник юстиции Узбекистана. 1925. №1.
17. Мухаммедяров Ш.Ф., К истории проведение национально-государствен-ного размежевания Средней Азии в 1924 г.// Советское Востоковедение. 1955. №1.
18. [www.credo.ru](http://www.credo.ru)
19. [www.albest.ru](http://www.albest.ru)

20. [www.google.ru](http://www.google.ru)

21. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)